

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

«TEXNIKA» FAKULTETI

«IQTISODIYOT» KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»
«Texnika» fakultet dekani
G.Bazarova

«__»____ 2013 y.

«HIMOYAGA QO'YILDI»
«Iqtisodiyot» kafedrası mudiri
N.Xalilov

«__»____ 2013 y.

“Iqtisodiyot” yo’nalishi talabasi

Abdurahmonov Sarvarbek Baxtiyor O’g’lining

**««Uz Semyung co» YOAJ qo’shma korxonasi asosiy kapitaliga
investitsiya kiritish imkoniyatlari» MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. U. Sobirov

Andijon-2013 yil

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
«TEXNIKA» fakulteti,
«IQTISODIYOT» kafedrası,
«IQTISODIYOT» yo'nalishi 4 kurs 1-guruh
«TASDIQLAYMAN»
kafedra mudiri
N. Xalilov

22.11.2012 yil

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: Abdurahmonov Sarvarbek Baxtiyor o'g'li.

Bitiruv ishining mavzusi "Uz Semyung Co O'zbekiston – Janubiy Koreya qo'sha korxonasining asosiy kapitaliga investitsiya kiritish imkoniyatlari"

4-sonli «9» noyabr 2012 yil kafedra majlisida ma'qullangan.

Bitiruv ishni topshirish muddati “ “ iyun 2013 yil.
Bitiruv ishni bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlari: "Uz Semyung Co" qo'shma korxonasining so'nggi uch yillik hisobotlari, statistik ko'rsatkichlari hamda mavzuga oid o'quv va ilmiy adabiyotlar, internet manbalari.

Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yxati)

Investitsiyalarni tadqiq etishning nazariy asoslari;
"Uz Semyung Co" O'zbekiston Janubiy Koreya qo'shma korxonasi iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash;

Chizma ishlar ro'yxati (nomi aniq ko'rsatiladi)

2.2.1-jadval. "Uz Semyung Co" O'zbekiston – Janubiy Koreya qo'shma korxonasi YOAJning ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili;

2.2.2-jadval. "Uz Semyung Co" O'zbekiston – Janubiy Koreya qo'shma korxonasi YOAJning mehnat ko'rsatkichlari tahlili;

2.2.3 hamda 2.2.4-jadval. "Uz Semyung Co" O'zbekiston – Janubiy Koreya qo'shma korxonasi YOAJning moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili;

6.Bitiruv ishi bo'yicha maslahatchi(lar)

№	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi f.i.sh.	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1	Kirish	I. Umarov	10.12.2012y	03.01.2013y
2	Investitsiyalarning nazariy asoslari	G. Zufarova	04.01.2013y	27.02.2013y
3	“Uz SaeMyung Co” Janubiy Koreya –O'zbekiston qo'shma korxonasi faoliyati tahlili	I. Umarov	28.02.2013y	14.04.2013y
4	Ishlab chiqarish korxonalariga investitsiya kiritish imkoniyat-larini oshirish yo'llari.	G. Zufarova	17.04.2013y	30.04.2013y
5	Xulosa	I. Umarov	02.05.2013y	15.05.2013y

Bitiruv ishini bajarish rejasi

№	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruv dan o'tganlik belgisi
1	Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati	10.01.2013y	
2	Investitsiyalarning tasniflanishi	17.01.2013y	
3	“Uz SaemYung Co” O'zbekiston – Janubiy Koreya qo'shma korxonasi yopiq aksiyadorlik jamiyatining shakllanish tarixi	27.02.2013y	
4	Qo'shma korxonaning boshqaruv strukturasi	14.03.2013y	
5	Qo'shma korxonaning 2010-2012 yillar ma'lumotlari asosida korxonaning iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy faoliyatiga umumiy baho berish	14.04.2013y	
6	Investitsiya kiritish imkoniyatlarini oshirishning xorij tajribasi	18.04.2013y	
7	“Uz Saemyung Co” qo'shma korxonasi investitsiya imkoniyatlari	30.05.2013y	

Bitiruv ishi rahbari: U. Sobirov

_____ (imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim: S. Abdurahmonov

_____ (imzo)

Topshiriq berilgan sana «20» noyabr 2012 yil

MUNDARIJA

KIRISH	5
 I-BOB. INVESTITSİYALARNING NAZARIY ASOSLARI.	
1.1. Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....	7
1.2. Investitsiyalarning tasniflanishi.....	13
 II-BOB. “UZ SAEMYUNG CO” JANUBIY KOREYA – O’ZBEKISTON QO’SHMA KORXONASINING FAOLIYATI TAHLILI.	
2.1 “Uz SaemYung Co” O’zbekiston – Janubiy Koreya qo’shma korxonasi yopiq aksiyadorlik jamiyatining shakllanish tarixi.....	29
2.2 Qo’shma korxonaning boshqaruv strukturasi.....	33
2.3 Qo’shma korxonaning 2010-2012 yillar ma'lumotlari asosida korxonaning iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy faoliyatiga umumiy baho berish.....	52
 III-BOB. ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIGA INVESTITSIYA KIRITISH IMKONIYATLARINI OSHIRISH YO’LLARI.	
3.1 Investitsiya kiritish imkoniyatlarini oshirishning xorij tajribasi.....	55
3.2 “Uz Saemyung Co” qo’shma korxonasining investitsiya imkoniyatlari.....	61
 XULOSA	 63
 FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	 65
 ILOVALAR	 67

KIRISH

Investitsiyalar iqtisodiyotning o'sishini va ishlab chiqarishning rivojlanishini ta'minlovchi muhim omildir. Iqtisodiy islohotlarning samarasi ham oqilona va baquvvat investitsiya siyosatini o'tkazishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidek, «Buning uchun ichki sarmoyalarni ham, tashqi kreditlarni ham, bevosita investitsiyalar va ularning barcha manbalarini ham ishga solish zarurdir»¹.

“O'tgan 2012 yilda iqtisodiyotimizga 11 milliard 700 million dollar miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etildi yoki bu boradagi ko'rsatkich 2011 yilga nisbatan 14 foizga o'sdi. Jami investitsiyalarning 22 foizdan yoki 2 milliard 500 million dollardan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ularning 79 foizdan ko'prog'i to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalaridir.”

Prezidentimiz I.A. Karimovning nutqidan xulosa chiqarar ekanmiz, bugungi kunda investitsiyalarning roli iqtisodiyotimizda muhim ekanligining amini bo'lishimiz mumkin. Quyidagi bitiruv malakaviy ishining ham bosh maqsadi aynan shuni ko'rsatib berishdan iborat. Bitiruv malakaviy ishi uchun quyidagi vazifalar tanlangan:

- investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini ochib berish;
- investitsiyalarning tasniflanishiga ta'rif berish;
- shuningdek “Uz Saemyung Co” Janubiy Koreya – O'zbekiston qo'shma korxonasining faoliyati tahlili;
- xususan korxonaning shakllanish tarixi, boshqaruv strukturasi, ish taqsimoti;

¹I.A. Karimov 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dastur.Ma'rifat, 2013 yil 19 yanvar.

- 2010-2012 yillar ma'lumotlari asosida korxonaning iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy faoliyatiga umumiy baho berish;
- investitsiya kiritish imkoniyatlarini oshirishning xorij tajribasi;
- “Uz Saemyung Co” qo’shma korxonasining investitsiya imkoniyatlaridan iborat.

Bitiruv oldi amaliyoti o’talغان “Uz Saemyung Co” Janubiy Koreya – O’zbekiston qo’shma korxonasi bitiruv malakiy ishi uchun obyekt sifatida tanlab olindi. Korxonada faoliyatini ko’rib chiqar ekanmiz, bugungi iqtisodiyoti qay darajada investitsiyalarga bog’liq ekanligini guvohi bo’lamiz. Bitiruv malakaviy ishida investitsiyalarning nazariy asoslari ochib berildi. “Uz Saemyung Co” Janubiy Koreya – O’zbekiston qo’shma korxonasining faoliyati mualliflik tahlili ishlab chiqildi. Ishlab chiqarish korxonalariga investitsiya kiritish imkoniyatlarini oshirish yo’llari topildi. Xulosa va takliflar bildirib o’tildi.

I-BOB. INVESTITSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI

1.1 INVESTITSIYALARNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI

Barcha korxonalarining faoliyati u yoki bu darajada investitsiya faoliyati bilan bog'likdir. Investitsiyalash bo'yicha qaror qabul qilishni turli omillar murakkablashtiradi:

- investitsiya turi;
- investitsiya loyihasi qiymati;
- investitsiyalashga yo'naltirish mumkin bo'lgan moliyaviy resurslarning chegaralanganlik darajasi;
- qarorni qabul qilish bilan bog'liq, tavakkalchilik darajasi;
- amalga oshirish mumkin bo'lgan loyihalar soni va boshqalar.

Investitsiya zaruriyatining asoslari turlicha bo'ladi. Umuman olganda ularni 3 turga bo'lish mumkin: mavjud moddiy texnik bazani yangilash, ishlab chiqarish faoliyati hajmini oshirish, yangi faoliyat turlarini o'zlashtirish.

U yoki bu yo'nalish bo'yicha investitsiya loyihasini qabul qilish bo'yicha mas'uliyat darajasi turlichadir. Masalan, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash bo'yicha qaror qabul qilish deyarlik qiyinchiliksiz amalga oshadi. Chunki, odatda, korxonalar rahbariyati qanday hajmda va qanday asosiy vositalar kerakligi haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Biroq, gap asosiy faoliyatni kengaytirishi bilan bog'liq investitsiyalar haqida borsalar, masalan murakkablashadi. Bunda bir qator yangi omillarni inobatga olish zarur bo'ladi: tovarlar bozorida korxonalar holati o'zgarishi xavfining mavjudligi; moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar qo'shimcha hajmlarining mavjudligi; yangi bozorlarni o'zlashtirish imkoniyati va boshqalar.

Milliy iqtisodiyot sohalariga tashqi va ichki investitsiyalar oqimini faollashtirish iqtisodiy yuksalishning yangi bosqichini

boshlab beradigan asosiy omil hisoblanadi. SHuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov «Vatanimizning kelajagi, uning jahon iqtisodiy aloqalari tizimidagi o'рни investitsiyalarga bog'liq bo'lib turibdi»², — deb bejiz ta'kidlamagan edilar. Shunga ko'ra, iqtisodiyotni faol rivojlantirish keng miqyosdagi investitsiyalarni talab qiladi.

Demak, investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta'minlovchi kuch ekan, barcha imkoniyatlarimizni ishga solib iqtisodiyotimizga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirishimiz lozim.

Shu bois investitsiya faoliyati to'g'risida so'z yuritishdan avval bu sohaga oid ba'zi bir atamalar (investitsiya, kapital qo'yilma, xorijiy investitsiya) mohiyatini aniqlab olishimiz zarur bo'ladi. Misol uchun, sobiq sovet yillarida «investitsiya» va «kapital qo'yilmalar» tushunchalari bir xil mazmunda talqin qilinib kelinardi. Bunday hollarda kapital qo'yilmalar deganda asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarish, mavjud quvvatlarni ta'mirlash va ularni kengaytirishga mablag'lar solish deb tushunilardi. Bu unchalik to'g'ri emas, chunki mablag'lar aylanma aktivlarga ham, nomoddiy aktivlarning ayrim turlariga ham, turli moliyaviy vositalarga ham solinadi.

Hozirga qadar «investitsiya» tushunchasi mohiyatini iqtisodchi olimlar turlicha talqin qilib keladilar. Ayrim iqtisodchilar uni «tadbirkorlik faoliyatiga daromad olish maqsadida safarbar etilgan barcha turdagi boylik» deb tushunsalar, ayrimlari lotincha «INVEST» so'zining aynan tarjimasini «solish» degan ma'noni bildirishidan kelib chiqqan holda «kapital solish» bilan birday qilib ta'riflaydilar.

²I.A. Karimov 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dastur. Ma'rifat, 2013 yil 19 yanvar.

Xususan, Nobel mukofotining iqtisodiyot bo'yicha laureati bo'lgan U. F. Sharpning eng ommabop hisoblangan «Investitsiya» darsligida— «Investitsiyalar kelgusida (ehtimol nomuayyan) qiymatlik olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatlikdan voz kechishdir»³, — deb ta'riflanadi. «Investitsiyalash» atamasining ma'nosini bu qo'llanma muallifi quyidagicha sharxlaydi: «Kelajakda foyda olish uchun bugun puldan ajralishdir» va hisoblaydilarki, yo real yoki moliyaviy aktivlarga investitsiyalash mumkin»³.

Shved iqtisodchi olimi Klas Eklund fikricha, «investitsiya — bu kelajakda ko'proq iste'mol qilish sharoitiga ega bo'lish uchun ertangi kunga qoldirilgan narsa. Uning bir qismi hozirda ishlatilmasdan zaxiraga qoldiriladigan iste'mol buyumlari bo'lib, boshqa qismi esa bu ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirilgan resurslardir»⁴. Bu iqtisodchi olim investitsiyalarning mohiyatini soddarok talqin qilgan bo'lib, u «kapital qo'yilmalarga» berilgan ta'rifga ko'proq mos tushadi.

«Экономика, принципы, проблемы и политика» darsligining mualliflari investitsiya tushunchasini quyidagicha sharxlaydilar, ya'ni «investitsiya « INVESTMENT» — bu moddiy zaxiralarning ko'payishi, ishlab chiqarish vositalarining jamg'arilishi va ishlab chiqarishga xarajatlardir». Ushbu ta'rif o'z mazmuniga ko'ra, ko'proq, «kapital qo'yilmalar» tushunchasiga mos kelishini ta'kidlab o'tish joiz.

Rossiyalik iqtisodchi olim Ye. V. Mixaylova esa «investitsiyalar kelajakda daromad yoki ijtimoiy samara olish maqsadida kapitalni har qanday shaklda qo'yish sifatida ifodalanadi», degan fikrni ilgari suradi. Bu ta'rif umumiy va sodda qilib

³У. Шарп, Г. Александр, Дж. Бейли. Инвестиции. Ingliz tilidan tarjima—М.:«ИНФРА», 2008 у., 979-bet.

⁴К л а с Эклунд. Эффективная экономика: шведская модель. — М.: «Экономика», 1991 у., 96-bet.

tushuntirilgan bo'lib, bozor iqtisodiyoti manfaatlariga mos talqin qilingan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan D. G'. G'ozibekov va T. M. Qoralievlar investitsiyani daromad (foyda) yoki ijtimoiy samara keltiradigan va tadbirkorlik, ishbilarmonlikning davlat tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlariga jalb qilinadigan (sarflanadigan) barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklar deb ta'riflaydilar. Samara keltiradigan mulkiy va intellektual boyliklar, ya'ni investitsiyalar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- pul mablag'lari, banklardagi maqsadli jamg'armalar, paylar, aktsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar;

- harakatdagi va harakatda bo'lmagan mulklar (binolar, inshootlar, asbob-uskunalar);

- mualliflik huquqi, ixtirolardan foydalanish huquqlaridan (nau-xau) tashkil topgan mulkdorlik huquqlari, boshqa intellektual boyliklar;

- yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari hamda mulkchilik huquqlari;

- boshqa boyliklar.

Ayniqsa, D. G'. G'ozibekovning «Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari» nomli ilmiy asarida investitsiyalarning makrodarajadagi va ishlab chiqarish nazariyasidagi, moliya nazariyasidagi va umuman, iqtisodiyotdagi mohiyatini ochib berishi alohida ahamiyatga ega. Muallifning fikricha, investitsiyalarning mohiyatini ta'riflayotganda ularning turli xil xatarlar va kutilayotgan daromadlar bilan bog'liqligini hamisha yodda tutmoq kerak. Pulning daromad keltirish layoqati pul keladigan manbalarga va uning nimalarga sarflanishiga, ya'ni pulning qaerdan kelishi va nimalarga investitsiyalanishiga bog'liq.

Binobarin, kapital manbalarining ishonchliligi bilan mablag'larni investitsiyalashning to'g'riligi o'rtasida uzviy bog'liqlik kuzatiladi. Investitsiya ana shu belgilari bilan boshqa mablag' solishlardan farqlanib turadi. SHuningdek investitsiyalarning noaniqlik ehtimoli bo'lgan va kelgusida kutilayotgan qiymatga kapitalning aniq bugungi qiymatini almashtirishdan iboratligi, buning dalili sifatida investitsiyalarning safarbar etilishida ularni ongli ravishda aniq va noaniq bo'lgan risklar bilan bog'lanishini keltirib o'tadilar. Va ta'kidlaydiki, investitsiyalar qaratilgan soha va qo'yish obyektlari, investitsiyalash subyektlari, qayta ishlab chiqarish va harakat yo'nalishlaridan kelib chiqib, muayyan maqsadlarni ko'zlaydi va ular bilan bog'liq bo'lgan aniq va noaniq risklar bilan to'qnashadi.

Biz investitsiyalarning mohiyatini ochishda ularning maqsadlari va ular bilan bog'liq bo'lgan risklar qayta ishlab chiqarish, qaratilgan soha va qo'yish obyektlaridan, investitsiyalar subyektlari va harakat yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda ularni tasniflashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Investitsiyalar aniq va noaniq, lekin ehtimoli bor risklar ostida kapitalni muayyan jarayonlarga, muayyan vaqtga bog'lash bo'lib, uning hozirgi qiymatini saqlash, kapitallashtirish va jamg'arish maqsadiga qaratiladi.

Shuningdek investitsiya tushunchasining mazmuni O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunida «Iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar»¹ sifatida ham ta'riflanadi.

Yuqoridagilarni taxlil qilib, umumlashtirar ekanmiz investitsiyaning juda keng tushunchaga ega ekanligini va uni har xil talqin qilish mumkinligini ko'rishimiz mumkin. SHuning uchun «investitsiya» tushunchasiga ta'rif berayotganda uning barcha jihatlarini hisobga olmog'imiz lozim. Iqtisodiy fanning turli

bo'limlarida, shuningdek amaliy faoliyatlarining turli yo'nalishlariga tadbiquan mablag' solish sohalari va obyektlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, bu atamaga turli ma'no berilmoqda.

Fikrimizcha, bu atamaning barcha jihatlarini umumlashtirib, quyidagicha ta'rif berish lozim. «Investitsiya» bu foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida, davlat, huquqiy va jismoniy shaxslar (investorlar) tomonidan cheklangan imkoniyatlardan samarali foydalanib, cheklanmagan ehtiyojni qondirish uchun iqtisodiyotning turli sohalariga ma'lum muddatga sarflangan barcha turdagi boyliklar.

Investitsiya mohiyatini ochuvchi ushbu ta'rifga binoan hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida investor «cheklangan imkoniyat»laridan samarali foydalanib, ishlab chiqarishga «ma'lum miqdordagi» mablag' sarflashi natijasida qisman foyda olishi, ushbu holatni umumjamiyat miqiyosida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning barcha jabhalarida qatnashishi natijasida iqtisodiy-moliyaviy va ma'naviy o'sishini ta'minlaydi. Bu o'z o'rnida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning — «Investitsiya sohasi mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini, barqarorligini ta'minlaydi va xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarining jadal o'sishi, bo'lg'usi yuksalishning muhim poydevori bo'lib xizmat qiladi», — deb ta'kidlagan fikriga bevosita to'g'ri keladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, investitsiya iqtisodiyot holatini tavsiflovchi «asosiy birlamchi» elementi degan xulosa qilish mumkin. SHundan kelib chiqib, investitsiya ma'lum subyekt orqali iqtisodiyot sohalaridan daromad olish yoki samaraga erishish maqsadida sarflanayotgan ekan, uni bevosita va bilvosita daromad keltiruvchi investitsiyalarga ajratish maqsadga muvofiqdir.

1.2. Investitsiyalarning tasniflanishi

Xorijiy mamlakatlarning tajribasi va investitsiya to'g'risida o'zimizda qabul qilingan qonunning taxlilidan kelib chiqib investitsiyaning shartli ravishda uchta turini ajratish mumkin:

1) Moliyaviy investitsiyalar. 2) Moddiy investitsiyalar. 3) Aqliy (intelektual) investitsiyalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xar bir investitsiya turining uziga xos urni bo'ladi. Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga maxalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlari, depozit, sertifikatlar, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar xamda ularga tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshaotlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarning aktiv va passiv qismlari kiradi.

Aqliy (intelektual) investitsiyalar miqdori juda rang-baragdir, ya'ni ular, mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar, aqliy mexnatga oid shakldagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat.

Mulkiy xuquqlar guruhiga kiradigan investitsiyalarning hillari bozor munosabatlarning nechog'lik rivojlanishiga bog'liq. Milliy mexnatga oid haq huquqlar shaklidagi investitsiyalar tarkibiga mualliflik huquqlari, «Nou Xau», kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi. Tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari ko'rinishidagi investitsiyalari yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlarini o'z ichiga oladi.

Hamma turdagi investitsiyalar, ularning xajmidan qat'iy nazar, biror bir investitsion jarayonning natijasidir.

Olimlarning investitsiyalar to'g'risidagi fikrlarini, investitsiyalar xususida qonunlarimizda keltirilgan ko'rsatmalarni umumlashtirilib investitsiyaga quyidagicha ta'rif beriladi.

«investitsiya deb xar bir investorning ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va aqliy boyliklarni birlamchi iqtisodiy samara olish maqsadida biror bir investitsion obyektga sarflanishiga aytiladi».

Investitsion faoliyatning tashabbuskorlari bo'lib, investorlar (yoki investitsiya subyektlari) maydonga chiqadi.

Investorlar o'zlari egalik qiladigan va karzga olingan mulkiy va aqliy kadriyatlarini tadbirkorlik ishiga ishlatish to'g'risida qarorga kelgan investitsion faoliyat subyektlaridir. Investorlar ulush ko'shuvchilar, kreditorlar, xaridorlar rovida maydonga chiqishlari, shuningdek, investitsion faoliyatning boshqa qatnashchilari vazifalarini bajarishlari mumkin.

Investitsion jarayonning asosiy ishtirokchilari bo'lib davlat, korxonalar va tashkilotlar, kompaniyalar va jismoniy shaxslar hisoblanadi. O'z navbatida bularning xar biri investitsiya jarayonining talab hamda taklifida ishtirok etishlari mumkin.

Investitsiyalar faoliyatining subyektlari bo'yicha ularni asosiy uch guruhga ajratish mumkin, ya'ni bular:

- davlat investitsiyalari;
- xususiy investitsiyalar;
- chet el investitsiyalariga bo'lish mumkin.

Davlat investitsiyalariga - shu davlatning davlat byudjeti va mahalliy byudjet shaklidagi mablag'larning bir qismini, ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun joylashtirish tushuniladi.

Dalat tomonidan mablag' ajratish yo'li bilan, ayni vaqtda bu ishni xukumat va boshqaruv organlari investitsion va ssuda resurslarini byudjetdan mablag' bilan ta'minlash hisobiga amalga oshiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida davlatning investitsion faoliyatidagi roli asosan fan-texnika taraqqiyotini rag'batlantirish, malakali ishchi kuchini yetishtirib berish, ishlab chiqarish

infrastrukturasiga mablag'lar ajratish singari qimmat turadigan jarayonlarga davlat sektori byudjetidan yetarli mablag' berish bilan cheklanishi kerak. Bundan tashqari, iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash va fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirish, jamoat ishlab chiqarishi sohalarini sog'lomlashtirish, qoloq tumanlar ijtimoiy infrasturkturasini industirlash xamda yaxshilash maqsadlarida iqtisodiyotning ustuvor sohalariga davlat tomonidan ssudalar va subsidiyalar ko'rinishida yordam berilishi mumkin.

Ijro etuvchi organning ihtiyoriy darajasi uchun xam o'z faoliyatini moliyalashtirish uchun ko'p miqdorda pul mablag'i talab etiladi. Bu faoliyat maktab, kasalxonalar va turar joylarni qurishda kapital qo'yish bilan bog'liqdir. Asosan bunday proektlar turli xil uzoq muddatli qarz majburiyatlari obligatsiyalar chiqarish orqali moliyalashtiriladi. Pul mablag'lariga bo'lgan talabning yana bir manbasi bu davlatning joriy xarajatlaridir. Masalan shaxar xokimiyatlari uchun tuplangan maxalliy soliqlar va yig'imlar kelib tushmasidan oldin joriy xarajatlar uchun pul mablag'lari kerak bo'lishi mumkin. Bunday xolda ular qisqa muddatli obligatsiyalar chiqarish yordamida moliyalashtiradilar.

Ayrim xollarda ijro etuvchi organ pul taklifini amalga oshiruvchilar tomonida qatnashishi mumkin. Agar viloyatda qandaydir muddat davomida pul mablag'i bo'sh turadigan bo'lsa, u xolda bu mablag'ni joriy hisobda ushlab turish o'rniga, xokimiyat bu mablag'ni qisqa muddatli instrumentlarga joylab, bu orqali daromad olishi mumkin.

Xususiy investitsiyalar esa – turli xil xususiy korxonalar va tashkilotlar, firmalar, tadbirkorlar hamda aholi tomonidan biror bir faoliyatga foyda olish maqsadida joylashtirgan mablag'lari kiradi. Bunda davlat va yuqori vazirligi bo'lmagan xususiy yuridik va jismoniy shaxslar, xo'jalik uyushmalari, jamiyatlar, shirkatlar

shuningdek jamoat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar tomonidan mablag'lar ajratish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ko'p korxonalar faoliyat turidan qat'iy nazar, o'zini faoliyatini ta'minlab turish uchun ko'p miqdorda mablag'ga muxtoj bo'ladi. Bu korxonalarining xam uzoq xamda qisqa muddatli xarajatlari mavjud. Korxonalarining qisqa va uzoq muddatli xarajatlarini moliyalashtirish uchun korxonalar turli xildagi qarz majburiyatlari va aksiyalarni muomalaga chiqaradi. Uz navbatida ularda bush pul mablag'lari mavjud bo'lsa, ular bu mablag'larni boshka faoliyatga yonlatiradi va bu orqali daromad oladi.

Jismoniy shaxslar esa investitsion jarayonga turli xil usulda mablag' yetkazib berishi mumkin, masalan pul mablag'larini bank hisob rakamlardida joylash, obligatsiya, aksiya va sug'urta polislarini sotib olish, turli xildagi mulkni sotib olish va xk. Moliyaviy instrumentlarni tanlash – muxim masala bo'lib, u investor uz oldiga kuyadigan maqsadlariga bog'likdir.

Chet el (xorijiy) investitsiyalar – bu chet eldan kirib kelayotgan mablag'lar oqimi hisoblanadi. Investitsiyaning ushbu turi ham davlat va xususiy turlarini o'z ichiga oladi. Bunda investitsiya faoliyati davlatlar, yuridik shaxslar va chet el fuqarolari tomonidan chet el investitsiyalarini berish yo'li orqali amalga oshiriladi.

Mulkka egalik qilish huquqiga, bekamu-ko'st xo'jalik yuritish yoki operativ ravishda boshqarish huquqiga, shuningdek daromalar manbaiga, jamg'armalariga ega bo'lgan va karzga beriladigan xamda jalb etiladigan mablag'larni olish huquqidan foydalana oladigan vatan va chet el fuqarolari, yuridik shaxslar, shuningdek ajnabiy davlatlar tomonidan birgalikda investitsiyalar ajratish yo'li bilan.

Demak, investitsiyalarni amalga oshirishda investitsion faoliyatni olib borish shakllari xam mulkchilik shakllariga karab

belgilanadi. Mablag'larning qaysi sohalarga ajratilishi, xajmlari va investitsiyalar berishda qatnashish shartlariga karab investitsion faoliyatning quyidagi obyektlari tavofut qilinadi:

Xalq xo'jaligining hamma sohalarida yangidan yaratiladigan va zamonaviy xolga keltiriladigan asosiy fondlar va aylanma mablag'lar; fan-texnika maxsulotlari, aqliy kadriyatlar, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, pul ulushlari, mulkiy huquqlar va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasida investitsion faoliyatni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirish mumkin:

- yuridik shaxslar tuzish yoki ularning ustav jamg'armalarida (kapitallarida) ulushli ishtirok etish, shu jumladan mol-mulknini yoki aktsiyalarni olish;

- qimmatli-qog'ozlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini olish;

- kontsessiyalarni, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan kontsessiyalarni olish;

- mulk huquqini, shu jumladan ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda savdo va xizmat ko'rsatish sohalarini obyektlariga, turar joylarga mulk huquqini, shuningdek, yerga hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish (shu jumladan, ijara asosida foydalanish) huquqini qonun xujjatlariga muvofiq olish.

Tadbirkorlikning mulkchilik turidan qat'iy nazar investitsiya faoliyati doirasida davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, korxonaning o'z mablag'lari, tijorat banklari mablag'lari va axoli tomonidan joylashtirilgan ulushli mablag'lar hisobidan to'g'ridan-to'g'ri moliyalash orqali o'z faoliyatini amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Xukumati kafolati ostida chet el investitsiyalari va kreditlarini jalb etgan xolda amalga oshiriladigan investitsiyalar markazlashgan investitsiya hisoblanadi.

Markazlashtirilgan investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha qarorlar davlat organlari tomonidan ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning istiqbolga mo'ljallangan taxminlari, aniq maqsadga mo'ljallangan taxminlari, aniq maqsadga mo'ljallangan ilmiy texnik va kompleks davlat dasturlari hamda ana shu investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini aniqlovchi texnik-iqtisodiy asoslar negizida qabul qilinadi.

Umumdavlat ahamiyatiga molik bo'lgan, aniq maqsadga mo'ljallangan kompleks davlat dasturlarining loyixalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi belgilaydigan tartibda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi davlat byudjetidan moliyalanadigan investitsiyalarning xajmlarini tasdiqlaydi.

Investitsion faoliyatning tashabbuskorlari bo'lib, investorlar (yoki investitsiya subyektlari) maydonga chiqadi.

Investorlar o'zlari egalik qiladigan va karzga olingan mulkiy va aqliy kadriyatlarini tadbirkorlik ishiga ishlatish to'g'risida qarorga kelgan investitsion faoliyat subyektlaridir. Investorlar ulush ko'shuvchilar, kreditorlar, xaridorlar rovida maydonga chiqishlari, shuningdek, investitsion faoliyatning boshqa qatnashchilari vazifalarini bajarishlari mumkin.

Investitsion jarayonning asosiy ishtirokchilari bo'lib davlat, korxonalar va tashkilotlar, kompaniyalar va jismoniy shaxslar hisoblanadi. O'z navbatida bularning xar biri investitsiya jarayonining talab hamda taklifida ishtirok etishlari mumkin.

Ivestitsiyalar faoliyatining subyektlari bo'yicha ularni asosiy uch guruhga ajratish mumkin, ya'ni bular:

- davlat investitsiyalari;
- xususiy investitsiyalar;
- chet el investitsiyalariga bo'lish mumkin.

Davlat investitsiyalariga- shu davlatning davlat byudjeti va mahalliy byudjet shaklidagi mablag'larning bir qismini, ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun joylashtirish tushuniladi.

Davlat tomonidan mablag' ajratish yo'li bilan, ayni vaqtda bu ishni xukumat va boshqaruv organlari investitsion va ssuda resurslarini byudjetdan mablag' bilan ta'minlash hisobiga amalga oshiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida davlatning investitsion faoliyatidagi roli asosan fan-texnika taraqqiyotini rag'batlantirish, malakali ishchi kuchini yetishtirib berish, ishlab chiqarish infrastrukturasi mablag'lar ajratish singari qimmat turadigan jarayonlarga davlat sektori byudjetidan yetarli mablag' berish bilan cheklanishi kerak. Bundan tashqari, iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash va fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirish, jamoat ishlab chiqarishi sohalarini sog'lomlashtirish, qoloq tumanlar ijtimoiy infrastukturasi industirlash xamda yaxshilash maqsadlarida iqtisodiyotning ustuvor sohalariga davlat tomonidan ssudalar va subsidiyalar ko'rinishida yordam berilishi mumkin.

Ijro etuvchi organning ihtiyoriy darajasi uchun xam o'z faoliyatini moliyalashtirish uchun ko'p miqdorda pul mablag'i talab etiladi. Bu faoliyat maktab, kasalxonalar va turar joylarni qurishda kapital qo'yish bilan bog'liqdir. Asosan bunday proektlar turli xil uzoq muddatli qarz majburiyatlari obligatsiyalar chiqarish orqali moliyalashtiriladi. Pul mablag'lariga bo'lgan talabning yana bir manbasi bu davlatning joriy xarajatlaridir. Masalan shaxar xokimiyatlari uchun tuplangan maxalliy soliqlar va yig'imlar kelib tushmasidan oldin joriy xarajatlar uchun pul mablag'lari kerak bo'lishi

mumkin. Bunday xolda ular qisqa muddatli obligatsiyalar chiqarish yordamida moliyalashtiradilar.

Ayrim xollarda ijro etuvchi organ pul taklifini amalga oshiruvchilar tomonida qatnashishi mumkin. Agar viloyatda qandaydir muddat davomida pul mablag'i bo'sh turadigan bo'lsa, u xolda bu mablag'ni joriy hisobda ushlab turish o'rniga, xokimiyat bu mablag'ni qisqa muddatli instrumentlarga joylab, bu orqali daromad olishi mumkin.

Xususiy investitsiyalar esa – turli xil xususiy korxonalar va tashkilotlar, firmalar, tadbirkorlar hamda aholi tomonidan biror bir faoliyatga foyda olish maqsadida joylashtirgan mablag'lari kiradi. Bunda davlat va yuqori vazirligi bo'lmagan xususiy yuridik va jismoniy shaxslar, xo'jalik uyushmalari, jamiyatlar, shirkatlar shuningdek jamoat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar tomonidan mablag'lar ajratish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ko'p korxonalar faoliyat turidan qat'iy nazar, o'zini faoliyatini ta'minlab turish uchun ko'p miqdorda mablag'ga muxtoj bo'ladi. Bu korxonalarining ham uzoq hamda qisqa muddatli xarajatlari mavjud. Korxonalarining qisqa va uzoq muddatli xarajatlarini moliyalashtirish uchun korxonalar turli xildagi qarz majburiyatlari va aksiyalarni muomalaga chiqaradi. Uz navbatida ularda bosh pul mablag'lari mavjud bo'lsa, ular bu mablag'larni boshqa faoliyatga yonlatiradi va bu orqali daromad oladi.

Jismoniy shaxslar esa investitsion jarayonga turli xil usulda mablag' yetkazib berishi mumkin, masalan pul mablag'larini bank hisob rakamlarida joylash, obligatsiya, aksiya va sug'urta polislarini sotib olish, turli xildagi mulkni sotib olish va xk. Moliyaviy instrumentlarni tanlash – muxim masala bo'lib, u investor uz oldiga kuyadigan maqsadlariga bog'liqdir.

Chet el (xorijiy) investitsiyalar – bu chet eldan kirib kelayotgan mablag'lar oqimi hisoblanadi. Investitsiyaning ushbu turi ham davlat va xususiy turlarini o'z ichiga oladi. Bunda investitsiya faoliyati davlatlar, yuridik shaxslar va chet el fuqarolari tomonidan chet el investitsiyalarini berish yo'li orqali amalga oshiriladi.

Mulkka egalik qilish huquqiga, bekamu-ko'st xo'jalik yuritish yoki operativ ravishda boshqarish huquqiga, shuningdek daromalar manbaiga, jamg'armalariga ega bo'lgan va karzga beriladigan xamda jalb etiladigan mablag'larni olish huquqidan foydalana oladigan vatan va chet el fuqarolari, yuridik shaxslar, shuningdek ajnabiy davlatlar tomonidan birgalikda investitsiyalar ajratish yo'li bilan.

Demak, investitsiyalarni amalga oshirishda investitsion faoliyatni olib borish shakllari xam mulkchilik shakllariga karab belgilanadi. Mablag'larning kaysi sohalarga ajratilishi, xajmlari va investitsiyalar berishda qatnashish shartlariga karab investitsion faoliyatning quyidagi obyektlari tavofut kilinadi:

Xalk xo'jaligining hamma sohalarida yangidan yaratiladigan va zamonaviy xolga keltiriladigan asosiy fondlar va aylanma mablag'lar; fan-texnika maxsulotlari, aqliy kadriyatlar, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, pul ulushlari, mulkiy huquqlar va boshqalar.

Investitsiyalar – iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritilgan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlarini yig'indisiga tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasida investitsion faoliyatni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirish mumkin:

- yuridik shaxslar tuzish yoki ularning ustav jamg'armalarida (kapitallarida) ulushli ishtirok etish, shu jumladan mol-mulknini yoki aktsiyalarni olish;

- qimmatli-qog'ozlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini olish;

- kontsessiyalarni, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan kontsessiyalarni olish;

- mulk huquqini, shu jumladan ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda savdo va xizmat ko'rsatish sohalari obyektlariga, turar joylarga mulk xuquqini, shuningdek, yerga hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish (shu jumladan, ijara asosida foydalanish) xuquqini qonun xujjatlariga muvofiq olish.

Tadbirkorlikning mulkchilik turidan qat'iy nazar **investitsiya faoliyati doirasida** davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, korxonaning o'z mablag'lari, tijorat banklari mablag'lari va axoli tomonidan joylashtirilgan ulushli mablag'lar hisobidan to'g'ridan-to'g'ri moliyalash orqali o'z faoliyatini amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Xukumati kafolati ostida chet el investitsiyalari va kreditlarini jalb etgan xolda amalga oshiriladigan investitsiyalar markazlashgan investitsiya hisoblanadi.

Markazlashtirilgan investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha qarorlar davlat organlari tomonidan ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning istiqbolga mo'ljallangan taxminlari, aniq maqsadga mo'ljallangan taxminlari, aniq maqsadga mo'ljallangan ilmiy texnik va kompleks davlat dasturlari hamda ana shu investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini aniqlovchi texnik-iqtisodiy asoslar negizida qabul qilinadi.

Umumdavlat ahamiyatiga molik bo'lgan, aniq maqsadga mo'ljallangan kompleks davlat dasturlarining loyixalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi belgilaydigan tartibda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi davlat byudjetidan moliyalanadigan investitsiyalarning xajmlarini tasdiqlaydi.

Investitsiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi huquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish, bu faoliyat subyektlarini sug'urtalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish yo'lida tashkil etiladi.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- investitsiya faoliyatini qonunchilik negizini takomillashtirish;
- soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqalashtiruvchi soliq tizimini qo'llash;
- asosiy fondlarni jadal amortizatsiya qilish;
- normalar, qoidalar va standartlarni belgilash;
- monopoliyaga qarshi choralarni qo'llash;
- kredit siyosati va narx belgilash siyosatini o'tkazish;
- yerga va tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash;
- investitsiya loyixalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilash;
- O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyixalarining amalga oshirilishi monitoringini yuritish;

Hozirgi davrda investitsiya munosabatlari kapitallarga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish borasidagi munosabatlarni qamrab oladi va nafaqat milliy iqtisodiyot doirasida, balki xalqaro iqtisodiyot darajasida resurslarni taqsimlash, qayta taqsimlash jarayonlarini aks ettiradi.

Ma'lumki investitsiya faoliyati kapital, tadbirkorlik, moliya, innovatsiya, ijtimoiy, iste'mol va boshqa investitsiyalarning hamma turlari bilal bog'liq bo'lib, odatda, soliqlarning fiskal (xazinani

to'ldirish) va tartibga solish funksiyalaridan foydalalish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu faoliyat, shuningdek, amortizatsiya siyosatini, dotatsiyalar, subsidiyalar tizimini, kredit, narx siyosatini, davlat kafolatlari tizimini, imtiyozlar yaratishni, chet el investorlarining huquqlarini himoya qilishni va boshqalarni ham qamrab oladi. Davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun turli darajadagi byudjetlarga zarur mablag'lar tushumlarini ta'minlashga qaratilgan fiskal vazifaning bajarilishi, milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga bog'liq. Tartibga solish funksiyasining ishlatilishi davlatning takror ishlab chiqarish jarayonida ayrim tarmoq-larga investitsiyalar oqimlarini boshqarishi bilan amalga oshiriladi. SHu bilan birga, iqtisodiyotning turli soha-larida kapital jamg'arilishi jarayonlarini kuchaytirish yoki susaytirish, aholining to'lovga qobil talabini kengaytirish yoki qisqartirish yo'llari bilan tartibga solish funksiyasini bilan foydalaniladi. Soliqyaarni tartibga solish makroiqtisodiy jarayon va proportsiyalarga tahsir etishiga qaratiladi. Soliqqa tortishda imtiyozlar asosan mikroiqtisodiyotga qaratilgan va iqtisodiy subyektlar manfaatlarini hisobga oladi. Biz yuqorida ko'rib o'tgan funksiyalar soliq stavkalari miqdorili o'zgartirish, imtiyozlar va sanktsiyalar (jazo choralari) qo'llash, soliq kreditlari berish, to'lov muddatlarini kechiktirish va boshqa yo'llar bilan amalga oshiriladi.

Jahondagi ko'pgina mamlakatlarda soliqlarning investitsiya faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan tartibga solish funksiyasidan samarali foydalaniladi. Masalan:

Yaponiya, Tayvan, Janubiy .Koreyada o'tish davrida soliq proteksionizmidan unumli foydalanilgan. AQSH da «buyuk depressiya»ni bartaraf etish davrida ham xuddi shunday bo'lgan.

Fan-texnika taraqqiyotini rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari turlaridan biri investitsiya soliq krediti hisoblanadi. AQSH da soliq imtiyozining bu turi 1962 yildan to 1986 yilga qadar

qo'llanilgan. Bunda chegirma (skidka) miqdori texnika-jihozlar turi va ularning xizmat muddati bo'yicha tabaqalashtirilgan. Bu imtiyozning variantlaridan birida AQSH ishlov beruvchi sanoatidagi korporatsiyalar foyda solig'ining ishga tushirilgan hamda xizmat muddati 8 yil va undan ortiq bo'lgan texnikalar qiymatining 7 foizi miqdorida, xizmat muddati kamroq bo'lgan texnikalarni ishga tushirilganlik uchun kamroq miqdorlarda qisqartirish huquqini oldilar.

Yaponiyada, masalan, sanoat kompaniyalari ilg'or texnika va texnologiyaga qilingan investitsiyalarning 7 foiziga teng miqdorda foyda solig'ini qisqartirish huquqiga ega. Kanadada bunday chegirma ilg'or texnikaga qilingan investitsiyalarning 7 foizdan 20 foizigacha miqtsorini tashkil qiladi.

Soliq krediti ko'rinishidagi imtiyozlar tadbirkorlikning ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar (ITTKI) xarajatlariga tadbiquan ham keng qo'llaniladi. Bir qator mamlakatlarda soliq krediti kompaniyalarning foyda solig'idan bu kompaniyalarning o'tgan yil yoki bazis davr uchun o'rtacha yillik mehyorlarga nisbatan ITTKI xarajatlari o'sishining muayyan hissasini chegirish ko'rinishida amal qiladi (AQSH da - 20 foiz, Frantsiyada - 50 foiz, Yaponiyada — 20 foiz, Kanadada 100 foiz va undan yuqori).

G'arb mamlakatlarida soliq imtiyozlari, birinchi navbatda investitsiyalar va ilmiy texnika faoliyatini rag'batlantirish, shuningdek ayrim tarmoqlar va mintaqalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash uchun joriy qilinadi. Ularning yordamida ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiyalash, texnikalar bilan qayta jihozlash uchun sharoitlar yaratiladi. Investitsiya, ilmiy-texnika faoliyatini, tadbirkorlikni butun mamlakat doirasida, mintaqa miqyosida va ayrim faoliyat sohalari bo'yicha rag'batlantirishga yo'naltirilgan soliq imtiyozlari eng barqaror imtiyozlar hisoblanadi. Soliq imtiyozlari quyidagi shakllarda qo'llaniladi:

- foyda solig'idan chegirma tarzida beriladigan soliq krediti;
- foyda solig'i bazasini kamaytirish chegirmalari;
- soliqdan butunlay ozod qilish yoki pasaytirilgan soliq stavkalarini belgilash;
- jadallashtirilgan amortizatsiyani qo'llash.

Turli mamlakatlarning tajribalari tasdiqlashicha, jadallashtirilgan amortizatsiya:

- kapital jamg'arilishini tezlashtirish (chunki yashirilgan foydaning jami summasi kapital qo'yilmalarga ketadi);
- asosiy kapitalning yangilanishini jadallashtirish, muayyan darajada uni inflyatsiyadan bexatar qilish va raqobatbardoshlikni ko'tarish;
- investitsiyaga yo'naltiriladigan foydani soliqqa tortishdan qonuniy ravishda ozod qilish imkoniyatlarini beradi.

Mamlakatimizda amalda bo'lgan qonun hujjatlarga ko'ra amortizatsiya ajratmalari normalarini ko'paytirishga ruxsat berilgan, lekin ular belgilangan mehyoridan ikki marotaba ortiq bo'lmasligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, belgilangan mehyoridan ortiq hisoblangan amortizatsiya ajratmalari soliqqa tortiladigan bazaga kiritiladi va soliqqa tortiladi. Amalda bunday mexanizm asosiy kapitalning xizmat muddatini qisqartirishga imkoniyat beradi, lekin ishlab chiqarishni texnika bilan qayta qurollantirish xarajatlarini rag'batlantirish vazifasini bajarmaydi va shakllanadigan amortizatsiya fondini investitsiyalash manbai tarzida ko'paytirmaydi. SHunday qilib, jadallashtirilgan amortizatsiyaning amalda yo'qligi ishlab chiqarishda investitsiyalarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan tadbirlarini cheklab qo'yadi. SHunday qilib amaliyotdagi jadallashtirilgan amortizatsiya usuli asosiy kapital xizmat muddatini qisqartirishga imkon beradi, biroq amaliy jihatdan jadallashtirilgan amortizatsiyani deyarli istisno qiladi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida u yoki bu investitsiya obyektiga qo'yilma qo'yish shu maqsaddan keladigan daromad darajasiga bog'liq. Daromat normasi, u orqali esa ushbu aktivlarning baholari, investitsiya tovarlariga bo'lgan talab va taklif orqali aniqlanadi. Bunday xollarda davlat o'zining pul-kredit siyosati orqali investitsiyaga bo'lgan talab va taklifni tuzilishi va nisbatiga tahsir etishi mumkin. Natijada esa investitsiya qatnashchilari moliyaviy aktivlarning daromadlilik meyoriga uz tahsirini o'tkazadi. Bizga ma'lumki xar bir davlat o'zining iqtisodiy xolatidan kelib chiqib u yoki bu turdagi investitsiya bozorini tartibga solish kontseptsiyasini kullaydi. Jaxon amaliyotida kullanilgan xar **qanday kontseptsiyalar ikki darajali maqsadni uz ichiga oladi.**

1. Oraliq maqsad - talab va taklif nisbati, foiz stavkalari va pul massasining o'sishini mutanosiblashtirish ishlarini amalga oshirish kuzda tutiladi.

2. Pirovard maqsad - milliy daromadni o'stirish, axolining bandlilik darajasini ta'minlash, inflyatsiyani pasaytirish v.b. hisoblanadi.

Oraliq maqsad esa pul-kredit va moliya soxasidagi talab va taklif o'rtasidagi mos keladigan nisbatni tartibga solish mo'ljali sifatida xizmat qiladi.

Pirovard (strategik) maqsad pul-kredit siyosatini ishlab chiqarishga tasir etish darajasini aniqlaydi.

Umuman olganda davlat tomonidan investitsiya faoliyatini tartibga solish quydagi maqsadlarga bog'liq:

- ishlab chiqarish va bandlilik o'rtasidagi tebranishni tekkislash;
- bahoni barqarorlashtirish (xech bo'lmaganda inflyatsiya darajasini pasaytirish);
- milliy daromatni o'stirish;

-to'lov balansini yaxshilash (ichki va tashqi qarzlarni qisqartirish);

-davlat byudjeti kamomadini pasaytirish.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirishda davlat tomonidan amalga oshiraladigan chora tadbirlarga quyidagi kiradi:

1. Kredit ekspansiyasi (tijorat banklar tomonidan beriladigan kredit resurslarning foiz stavkasini pasaytirish yuli bilan ssuda kapitalining taklifini oshirish).

2. Davlat manfaatdor bo'lgan tarmoqlarni byudjet resurslari hisobidan kreditlash.

3. Davlat manfaatdor bo'lgan karzdor tarmoqlarni to'lov qobiliyatini kafolatlash.

O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonunida quyidagi davlat tomonidan investitsiya faoliyatini tartibga solish choralari belgilangan:

- investitsiya faoliyatining Qonunchilik negizini takomillashtirish;

- soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlarining, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarini tabakalashtiruvchi soliq tizimini qo'llash;

- asosiy fondlarning jadal amortizatsiya qilish;

- monopoliyaga karshi choralarni kullash:

- investitsiya loyixalarining ekspertiza qilish mexanizmini takomillashtirish;

- O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyixalarini amalga oshirish monitoringini yuritish.

II-BOB. “UZ SAEMYUNG CO” JANUBIY KOREYA – O’ZBEKISTON QO’SHMA KORXONASINING FAOLIYATI TAHLILI.

2.1 “UZ SEMYUNG CO” O’zbekiston – Janubiy Koreya qo’shma korxonasi yopiq aksiyadorlik jamiyatining shakllanish tarixi

“Uz-SeMyung Ko.” O’zbekiston-Janubiy Koreya qo’shma korxonasi yopiq aksiyadorlik Jamiyatining 1996 yil 29 iyundagi Deu Korporeyshn Limited (“DEU”), Semyung Metall Ko Limited (“Semyung”) va “Uzavtosanoat” Aksiyadorlik Kompaniyasi (“UZAVTOSANOAT”) o’rtasida Qo’shma korxonasi to’g’risidagi Bitim asosida tuzilgan. Kompaniyaning tashkiliy-xuquqiy shakli – Yopiq aksiyadorlik Kompaniyadir.

1997 yil 11 yanvardagi tuzatilgan va qayta tasdiqlangan Qo’shma korxonasi to’g’risidagi Bitim bilan ta’sischi ro’yxatiga va aksiyadorlar ulushiga o’zgartirishlar kiritilgan.

2009 yil 12 martda “Uz-Se Myung Ko” YoAJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari yig’ilishi qaroriga asosan aksiyadorlar ro’yxatiga o’zgartirishlar kiritilgan va “Semyung Metall Ko Limited” **erae cs limited** deb o’zgartirilgan.

To’liq firma nomi.

Rus tilida: Совместное Узбекское-Южнокорейское предприятие в форме закрытогоакционерного общества «Уз-СэМюнг Ко.»

Ingliz tilida: Closed Type Joint Stock Company «Uz-SaeMyung Company».

O’zbek tilida:

Kirill yozuvida: Ёпик акциядорлик жамияти шаклидаги «Уз-СэМюнг Ко.» O’zbekiston-Janubiy Koreya qo’shma korxonasi.

Lotin yozuvida: Yopiq aksiyadorlik jamiyati shaklidagi «Uz-SaeMyung Ko.» O’zbekiston-Janubiy Koreya qo’shma korxonasi.

Qisqartirilgan firma nomi.

Rus tilida: ЗАО СП «Уз-СэМЮнг Ко.»

Ingliz tilida: CJSC JV«Uz-SaeMyung Co.».

O'zbek tilida:

Kirill yozuvida: «Уз-СэМЮнг Ко.» КК ЁАЖ

Lotin yozuvida: «Uz-SaeMyung Co.» QK YoAJ.

Jamiyat bosh ofisining pochta manzili:

170105, O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahri, Soy ko'chasi 5-uy

Jamiyatning ishchi tillari: rus, ingliz va o'zbek tillari. Jamiyat faoliyatiga tegishli barcha hujjatlar ingliz tilida tuziladi va Kuzatuv kengashi, Bosh direktor va Bosh direktor o'rinbosarining talablariga ko'ra rus va o'zbek tillariga tarjima qilinadi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomalari va kompaniyaning moliya hisobotlari ingliz, rus va o'zbek tillarida tuziladi.

Jamiyatning faoliyat muddati – 99 (to'qson to'qqiz yil)

Ustavda ishlatilayotgan “shaxslar” iborasi barcha yuridik va jismoniy shaxslarni anglatadi.

Jamiyatning faoliyat maqsadi va predmeti quyidagilarni nazarda tutadi:

a) O'zbekiston, MDH va boshqa mamlakatlar hududida yengil avtomobil, avtobus, furgonlarning yoqilg'i baki va shtampovka qismlarini ishlab chiqarish, sotib olish, yig'ish, marketing qilish, taqsimlanish va sotish;

b) aytib o'tilgan maqsadlarga erishish uchun istalgan har qanday harakatlar, ishlar, savdo-sanoat faoliyati, tasodifiy yoki tahsir ko'rsatiladigan, bevosita yoki qo'shimcha faoliyatlar bilan shug'ullanish.

Yuqorida sanab o'tilgan maqsadlar va faoliyat predmeti Jamiyatning boshqa maqsadlarga oid yoki O'zbekiston qonunchiligida

tahqiqlanmagan har qanday faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqini cheklamaydi.

O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalashtirilishi zarur bo'lgan alohida faoliyat turlari bilan Kompaniya faqat tegishli litsenziyalar asosida shug'ullanishi mumkin.

O'z faoliyatining maqsad va predmetidan kelib chiqib Kompaniya quyidagi harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega:

a) o'z nomidan Qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibda bitimlar tuzish, zimmasiga majburiyatlar olish, sudda dahvogar va javobgar bo'lish, boshqa organlarda dahvolarni hal etishda qatnashish;

b) o'z nomidan va boshqa yo'llar bilan har qanday mulkiy va shaxsiy nomulkiy xuquqlarga ega bo'lish hamda amalga oshirish, mulk huquqlarini, intellektual mulklarni va nomoddiy aktiv manfaatlarni qayd qilish va O'zbekiston Respublikasi hamda chet el hududlarda ushbu mulklarga ega bo'lish; litsenziya orqali va boshqa yo'llar bilan nomoddiy huquqlarga va intellektual mulklarga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish;

c) har qanday ko'chma va shaxsiy mol-mulkka egalik qilish, bunday mol-mulknini sotib olish, sotish, ijaraga olish va foydalanish;

d) tovarlarni eksport-import qilish bo'yicha mustaqil ravishda savdo-sotiq va biznes operatsiyalarini amalga oshirish (shuning ichida va shu bilan chegaralanmagan holda: xom ashyo materiallar, paxta, rangli metallar, qishloq xo'jalik mahsulotlari, o'g'itlar, mexanizmlar, asbob uskunalar va hokazo) hamda qonun hujjatlariga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish;

e) mustaqil ravishda shartnomaviy munosabatlarga kirishish, kontragentlar bilan shartnoma predmetini tanlash, majburiyatlarni belgilash, xo'jalik munosabatlarining qonun hujjatlari va Tahsis hujjatlari talablariga zid bo'lmagan boshqa har qanday shartlarini belgilash;

f) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga rioya qilgan holda O'zbekistondagi vakolatli bankda milliy va chet el valyutalarida hisob raqamlarini ochish;

g) pul yoki mulk shaklida qarz va kreditlar olish, moliyalashtirishning har xil turlaridan foydalanish;

h) qimmatli qog'ozlar chiqarish;

i) Jamiyat majburiyatlari bo'yicha har xil tahminotlarni taqdim etish;

j) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan tahqiqlanmagan har qanday valyuta operatsiyalarini amalga oshirish;

k) har xil mol-mulkni (tovarlarni) ayriboshlash bitimlarini tuzish;

l) ishchilarni ishga qabul qilish, maslahatlar va boshqa xizmatlardan foydalanish;

m) mehmonxonalar qurish va ishlatish, ofis va turar joy binolarini ijaraga berish, dam olish hududlarini qurish, rivojlantirish va foydalanish;

n) yuklarni va passajirlarni tashish faoliyati bilan shug'ullanish hamda boshqa transport xizmatlari ko'rsatish;

o) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan tahqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanish.

2.2 Qo'shma korxonaning boshqaruv strukturasi va ish taqsimoti

Jamiyat yopiq aksiyadorlik jamiyat shaklidagi tijorat tashkiloti – yuridik shaxs hisoblanadi, alohida o'z mulkiga, mustaqil balansiga, bank hisobvaraqlariga, shu jumladan valyuta hisobvaraqlariga, davlat tilida firmaning to'la nomi ifoda etilgan hamda Jamiyat manzili ko'rsatilgan muhrga, firma nomi bilan shaxsiy shtamplarga, blanklarga, shaxsiy emblemasiga hamda o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga va yozma ifoda etish boshqa vositalariga ega.

Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va o'z Ustaviga muvofiq faoliyat yuritadi.

Jamiyat qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibda xo'jalik birlashmalari va jamiyatlarining, shu jumladan sho'hba va qaram xo'jalik jamiyatlarining ta'sischi, ishtirokchisi bo'lish, boshqa yuridik shaxslar ustav fondida (ustav jamg'armasida) boshqa usullar bilan ishtirok etish, vakolatxonalar va filiallar tashkil etish huquqiga ega.

Jamiyat o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli barcha mulki bilan javob beradi.

Aksiyadorlar Jamiyat majburiyatlari bo'yicha o'z aksiyalari doirasidagina javobgar bo'lishadi.

Jamiyat aksiyadorlarning majburiyatlari bo'yicha, aksiyadorlar esa Jamiyatning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar, agar qonun hujjatlarida boshqa qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa.

Jamiyatning Ustav fondi 1 200 000 000 (bir milliard ikki yuz million) so'm yoki 5 400 000 (besh million to'rt yuz ming) AQSH dollarni tashkil qiladi va bu 480 000 dona, har birining nominal qiymati 2 500 (ikki ming besh yuz) so'm bo'lgan oddiy egasi yozilgan aksiyalarga taqsimlangan.

Ustav fondini to'lanishi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi hamda barcha aksiyalar aksiyadorlarga quyidagi miqdorlarda tegishlidir:

2.2.1- Jadval

“Uz semyung co” YOAJning aksionerlari hamda to'langan aksiyalar miqdori

Aksioner	To'liq to'langan aksiyalar miqdori
Erae cs limited	Ikki yuz qirq ming (240.000)-50%
UZAVTOSANOAT	Bir yuz sakson besh ming (185.000)-38.5%
ANDIJONMASH	Ellik besh ming (55.000)-11.5%
Jami	To'rt yuz sakson ming (480.000)

Manba: “Uz SaemYung Co” O'zbekiston – Janubiy Koreya qo'shma korxonasi yopiq aksiyadorlik jamiyatining ustavi.

Jamiyat Aksiyadorlar yig'ilishida qatnashayotgan aksiyadorlarning to'rt dan uch qism (75 %) ovozi bilan qabul qilingan qarorga asosan, e'lon qilingan aksiyalar chegarasidan o'tmagan holda kelajakda qo'shimcha aksiya chiqarishi mumkin. Har bir qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi, O'zbekiston tegishli organlari tomonidan qayd qilingan kundan Ustav mablag'ini ko'payishiga va Ustavning tegishli bandlari matni ushbu joyda o'zgarishiga olib keladi.

Qo'shimcha aksiyalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan har qanday shaklda to'lanishi mumkin.

Aksiyalar to'liq to'langandan keyin Jamiyat har bir aksiyadorga aksiyalar to'liq to'langanligini tasdiqlovchi Sertifikat beradi.

Aksiyalar uchun to'langan pul to'lovlari Jamiyatning bank hisobiga pullar kelib tushgan kundan to'langan hisoblanadi. Jamiyat aksiyalar uchun O'zbekiston Respublikasining vakolatli banki orqali olingan to'lovlarni to'lov kelib tushgan kuni zudlik bilan tasdiqlaydi.

Aksiyalar uchinchi shaxslarga o'tkazilishi uchinchi shaxs tomonidan mazkur Ustavni va Qo'shma korxonaning Bitimini to'la qabul qilish sharti bilan amalaga oshiriladi.

Jamiyat o'zining sof foydasi hisobidan yillik ajratmalar ajratish yo'li bilan Jamiyat ustav fondining 15 foizidan kam bo'lmagan miqdorda zaxira fondini vujudga keltiradi.

Zaxira fondiga yillik ajratmalar miqdori Zaxira fondi Jamiyat ustav fondining 15 foiziga yetguniga qadar Jamiyat sof foydasining 5 foizi miqdorida, Zaxira fondi Jamiyat ustav fondining 15 foiziga yetganidan keyin esa – Jamiyat sof foydasining 0,1 foizi miqdorida belgilanadi.

Jamiyatning zaxira fondi faqat qonun hujjatlarida belgilangan maqsadlarga ishlatilishi mumkin.

Jamiyatning Zaxira va boshqa fondlarini ishlatish masalalari Kuzatuv kengashi tomonidan hal qilinadi. Kuzatuv kengashining bunday qarorlari Korxonada Ustavining 8.5-moddasiga asosan aksiyadorlar tomonidan tasdiqlanadi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yig'ilishda katnashayotgan aksiyadorlarning to'rt dan uch qism (75 %) ovozi bilan qabul qilingan qarori bilan qonun hujjatlariga muvofiq Kompaniyada boshqa fondlar ham vujudga keltirilishi mumkin.

Fondlarga egalik qilish va nazorat qilish mutlaqo va yakka Jamiyat tomonidan amalaga oshiriladi.

Jamiyatning sof foydasi Aksiyadorlar o'rtasida qonun hujjatlari hamda ushbu Ustavga asosan Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining Kuzatuv kengashi tavsiyasiga asosan qabul qilingan qaroriga muvofiq taqsimlanadi va aksiyadorlarga dividendlar shaklida to'lanadi.

Jamiyat aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart. Dividendlar Jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydadan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Jamiyat yilning har choragida, har yarim yilda yoki yiliga bir marta joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida, agar qonun hujjatlarida o'zgacha qoida belgilanmagan bo'lsa, qaror qabul qilishga (e'lon qilishga) haqlidir.

Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar (yilning har bir choragi, yarim yilligi, yilligi bo'yicha) to'lash, dividendning miqdori hamda uni to'lash shakli to'g'risidagi qaror Jamiyat kuzatuv kengashining tavsiyasi asosida aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori Jamiyat kuzatuv kengashi tavsiya etgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyalarning muayyan turlari bo'yicha dividendlar to'lamaslik to'g'risida, shuningdek Jamiyat ustavida dividend miqdori belgilab qo'yilgan imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'liq bo'lmagan miqdorda dividendlar to'lash haqida qaror qabul qilishga haqli.

Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugaydigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Yilning har bir choragi, yarim yilligi bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risidagi qaror (e'lon) tegishli davr tugaganidan so'ng ikki oy ichida qabul qilinishi mumkin.

Agar dividendlar to'lash oqibatida aksiyadorlik Jamiyatning moliya-xo'jalik ahvoli jiddiy tarzda yomonlashadigan bo'lsa, dividendlar to'lash taqiqlanadi.

Dividendlar to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan ehtiboran 60 kundan kech bo'lmasligi lozim.

Jamiyat faoliyati davomida yuzaga kelgan zararlar birinchi navbatda Jamiyatning zaxira fondi hisobiga qoplanadi.

Jamiyatning zaxira fondi miqdori yetarli bo'lmagan hollarda zarar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga asosan boshqa mablag'lar hisobiga qoplanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Kompaniya boshqaruvining oliy organidir. Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (aksiyadorlarning umumiy hisobot yig'ilishini) o'tkazishi shart.

Agar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchilarni ro'yxatga olish tamom bo'lgan paytga kelib, Jamiyatning tarqatilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 75 (etmish besh) foizidan ko'piga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorum to'plagan) hisoblanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan rasmiy e'lonqilingan sanadan 3 kalendarg' kun oldin shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlari reestrida qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yozma ishonchnoma asosida ish ko'radi. Ovoz berishga doir ishonchnomada vakolat bergan va vakil qilingan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi yoki nomi, turar joyi yoki joylashgan manzili, pasport ma'lumotlari) aks ettirilgan bo'lishi lozim. Jismoniy shaxs nomidan berilgan ovoz berishga doir ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan beriladigan ovoz

berishga doir ishonchnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladi.

Aksiyadorlar yillik yig'ilishi moliyaviy yil o'tgandan so'ng olti oydan kechiktirmay hech bo'lmaganda bir yilda bir marta chaqiriladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Jamiyat kuzatuv kengashining qarori bilan uning o'z tashabbusiga binoan, Jamiyat taftish komissiyasi talabiga ko'ra, shuningdek talab taqdim etilgan sanada Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida o'n foiziga ega bo'lgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabi bilan o'tkaziladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining raisi aksiyadorlar umumiy yig'ilishida saylanadi. Rais umumiy yig'ilishni olib borishini, yig'ilishning ishchi guruhlarining faoliyatini koordinatsiyasini ta'minlab beradi. Raisda o'z burchlarini bajarish uchun hamma vakolatlar mavjud.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining vakolatiga quyidagi masalalar kiradi:

a) Jamiyat ustaviga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

b) Jamiyatni qayta tashkil etish;

s) Jamiyatni tugatish, tugatuvchini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

d) Jamiyat kuzatuv kengashining miqdor tarkibini belgilash, uning ahzolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatish;

e) e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

f) Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish;

g) Jamiyatning ustav fondini kamaytirish;

h) o'z aksiyalarini qaytarib sotib olish;

i) Jamiyat ijroiya organini tuzish (saylash, tayinlash), uning vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatish masalalarni hal qilish;

j) Jamiyat taftish komissiyasining ahzolarini (taftishchini) saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatish;

k) auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risida, auditorlik tashkilotini va uning xizmatiga to'lanadigan haq miqdori chegarasini belgilash to'g'risida qaror qabul qilish;

l) Jamitning yillik biznes-rejasini, yillik hisobotlarini, buxgalteriya balanslarini, foyda va zararlari hisobvarag'ini tasdiqlash, uning foyda va zararlarini taqsimlash;

m) Jamiyat kuzatuv kengashining o'z vakolatiga kiradigan masalalarga doir, shu jumladan, Jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishiga doir hisobotlarini eshitish;

n) aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni sotib olishda aksiyadorning imtiyozli huquqini qo'llamaslik to'g'risida qarorni qabul qilish;

o) umumiy yig'ilish reglamentini tasdiqlash;

p) aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

q) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda tuzilishidan manfaatdorlik bo'lgan bitimning Jamiyat tomonidan tuzilishi to'g'risidagi qaror qabul qilish;

r) Qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi buyicha 2 (ikki) million AQSH dollari va undan ortik bulgan summani tashkil etuvchi mol-mulk xususida bo'lgan yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish;

s) har qanday mahalliy va xorijiy filiallarni tashkil etilishi va tugatilishi,

t) Qonunda nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal etish.

Ustavning 8.5-bandi a) b) c) e) n) va q) - kichikbandlarida nazarda tutilgan masalalar bo'yicha qarorlar aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlarning to'rt dan uch ($3/4$) qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Ishtirokchilar umumiy yig'ilishining vakolatiga taalluqli boshqa masalalar aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlarning ovozlarining oddiy ko'pchilik ovozi (50 foizdan ortig'i) bilan qabul qilinadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida aksiyadorlarga xabar berish tegishli axborotni matbuotda e'lon qilish hamda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi rasmiy e'lon qilingan sanadan 30 kalendar g' kun oldin shakllantirilgan Kompaniya aksiyadorlari reestri asosida ularga xabarnoma yuborish orqali amalga oshiriladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bo'yicha yozma xabarnoma barcha aksiyadorlarga yig'ilish o'tkazilish kunidan 15 kalendar g' kun oldin yuboriladi. Xabarnoma mazkur Ustavning 15.2-moddasida nazarda tutilgan tartibda yuborilishi lozim. Xabarnomada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- Jamiyatning nomi va joylashgan yeri (pochta manzili);
- Umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joy;
- Jamiyat aksiyadorlari reestri tuziladigan sana;
- Umumiy yig'ilishning kun tartibiga kiritilgan masalalar;
- Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan aksiyadorlarni tanishtirish tartibi.

Yillik yoki navbatdan tashqari yig'ilishlar O'zbekiston Respublikasida yoki Jamiyat jahmi aksiyadorlarning to'rt dan uch

qismining (3/4) roziligi bo'lgan taqdirda chet elda o'tkazilishi mumkin.

Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishining qarori yig'ilishni o'tkazmagan holda sirdan ovoz berishni o'tkazish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) qabul qilinishi mumkin, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatiga kiritilgan masalalar bundan mustasno. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha sirdan ovoz berishni o'tkazish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) qaror qabul qilinishi mumkin emas.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) qabul qilingan qarori, agar ovoz berishda Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida yetmish besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar qatnashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

Sirdan ovoz berish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga javob beradigan ovoz berish byulletenlaridan foydalangan holda o'tkaziladi. Aksiyadorlarga ovoz berish uchun byulletenlar berish sanasi Jamiyat byulletenlarni qabul qilishni to'xtatadigan kundan kamida 30 kun oldin belgilanishi kerak.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan rasmiy e'lon qilingan sanadan 3 kalendarg' kun oldin shakllantirilgan Kompaniya aksiyadorlari reestrda qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin kechi bilan 15 kun ichida ingliz va o'zbek yoki rus tillarida har bir tilda ikki nusxadan tuziladi. Bayonnomaning barcha nusxalari umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida:

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkazilgan joy va vaqt;
- Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalariga ega bo'lgan aksiyadorlar ovozlarining umumiy soni;
- yig'ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlar soni;
- yig'ilishning raisi (rayosati) va kotibi, yig'ilishning kun tartibi ko'rsatiladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida nutqlarning asosiy mazmuni, ovozga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish natijalari, yig'ilish qabul qilgan qarorlar aks ettirilishi lozim.

Bayonnomalar tuziladi. Bayonnomada har qanday ziddiyat tug'ilganda, bayonnomaning ingliz tilidagi matni ustuvor hisoblanadi.

Jamiyatning kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, ushbu Qonun bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

Kuzatuv kengashi ahozolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan 1(bir) yil muddatga saylanadi.

Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslarning qayta saylanishlari cheklanmaydi.

Jamiyat ijroiya organining ahozolari kuzatuv kengashiga saylanishlari, tayinlanishlari mumkin emas. Jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar kuzatuv kengashi ahozolari bo'lishi mumkin emas.

Kuzatuv kengashi 4(to'rt) odamdan iborat. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan bu miqdor o'zgartirilishi mumkin.

Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi ahozolari tomonidan ularning o'zlari orasidan kuzatuv kengashi ahozolari umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

Kuzatuv kengashining raisi kengash ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, Jamiyat nomidan Jamiyat ijroiya organi ahzolari bilan mehnat shartnomasini imzolaydi va ushbu Ustavda nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

Kuzatuv kengashining raisi yo'qligida uning vazifasini Kuzatuv kengashi ahzolaridan biri bajaribturadi.

Kuzatuv kengashining majlisi kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusi bilan, kuzatuv kengashining ahzosi, taftish komissiyasining, Jamiyat ijroiya organining talabiga binoan chaqiriladi.

Kengashning yig'ilishlari O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lib o'tishi shart.

Kuzatuv kengashi majlisi o'tkazilishi haqidagi xabarnoma kuzatuv kengashi ahzolariga majlis o'tkaziladigan kundan kamida 7 (etti) kun oldin yuboriladi. Xabarnomada yig'ilishning sanasi, vaqti, o'tkazish joyi hamda kun tartibi ko'rsatiladi.

Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish uchun kvorum kengashga saylangan ahzolarning 75%ini (to'rt dan uch kishi) tashkil qiladi.

Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lganlarning 75 (%) foiz ovozi bilan qabul qilinadi. Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda kuzatuv kengashining har bir ahzosi bitta ovozga ega bo'ladi.

Kuzatuv kengashi ahzolarining soni kengashga saylangan ahzolarning 75 (%) foizidan kam bo'lib qolsa, Jamiyat kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning favqulodda (navbatdan tashqari) umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan ahzolari aksiyadorlarning ana shunday favqulodda (navbatdan tashqari) umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagina qaror qabul qilishga haqlidir.

Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng 10 kundan kechiktirmay ichida ingliz va o'zbek yoki rus tillarida tuziladi.

Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- majlis o'tkazilgan joy va vaqt;
- majlisda hozir bo'lgan shaxslar;
- majlisning kun tartibi;
- ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;
- qabul qilingan qarorlar.

Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan barcha ahzolar tomonidan imzolanadi va ular majlisning bayonnomasi to'g'riligi uchun javobgardir.

Bayonnomalarda ziddiyatlar tug'ilganda bayonnomaning ingliz tildagi matni ustuvor hisoblanadi.

Kuzatuv kengashining vakolatiga quyidagi masalalar kiradi:

- a) Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- b) Jamiyat aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish;
- c) aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;
- d) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanani belgilash;
- e) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlari reestrini shakllantirish sanasini belgilash;
- f) mol-mulkning bozor qiymatini aniqlash;
- g) Jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash;
- h) ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorini belgilash;

i) aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori va ularni to'lash tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

j) Jamiyatning zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish;

k) Jamiyatning boshqaruv organlari faoliyat tartibini belgilovchi hujjatlarni, Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;

l) Jamiyatning vakolatxonalarini, filiallarini, sho'hiba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

m) qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi buyicha 1(bir) milliondan 2 (ikki) million AQSH dollarigacha bulgan summani tashkil etuvchi mol-mulk xususida bo'lgan yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish (bunday qaror yakdillik bilan (bir ovozdan) qabul qilinadi);

n) tuzilishidan manfaatdorlik bo'lgan bitimlarni Jamiyat tomonidan tuzilishi to'g'risida qaror qabul qilish, qonun hujjatlari bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga berilgan hollar bundan mustasno;

o) miqdori ellik ming AQSH dollaridan (50 000) yuqori va to'lash muddati olti oydan ko'proq bo'lgan qarzlar va kreditlar olish, kafolatlar berish;

p) yillik biznes-rejaga kiritilmagan hamda 100 000 (yuz ming) AQSH dollaridan ortiq xarajatlar qilish haqida qaror qabul qilish.

q) boshqa xo'jalik jamiyatlarida ishtirok etish haqida qaror qabul qilish.

Kuzatuv kengashi vakolatiga taalluqli barcha masalalar Kuzatuv kengashi ahzolarining oddiy ko'pchilik ovozi (50 foizdan ortig'i) bilan qabul qilinadi, ushbu 9.10-bandning "m" kichik bandida nazarda tutilgan masala bundan mustasno.

Jamiyatning kundalik faoliyati ustidan rahbarlik Jamiyatning kollegial ijroiya organi – Direksiya tomonidan amalga oshiriladi.

Jamiyat Bosh direktori va Bosh direktorning o'rinbosari Jamiyatning kollegial ijroiya organi hisoblanadi.

Bosh direktor va Bosh direktor o'rinbosari ijroiya organi vakolatiga taaluqli masalalar bo'yicha kollegial ijroiya organi majlisini o'tkazgan holda o'zaro kelishilgan qaror qabul qiladilar. Kollegial ijroiya organi majlisida bayonnoma yuritiladi. Bayonnomada majlisda qatnashgan shaxslar ro'yxati, kun tartibi va qabul qilingan qaror ko'rsatiladi. Bayonnoma Bosh direktor va Bosh direktor o'rinbosari tomonidan imzolanishi shart.

Bosh direktor va Bosh direktor o'rinbosari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroiri bilan 1 (bir yil) muddatga saylanadilar.

Bosh direktor va Bosh direktor o'rinbosariga Kuzatuv kengashi belgilagan miqdorda ish haqi va kompensatsiya to'lanadi.

Jamiyat ijroiya organi majlislarini o'tkazishni Bosh direktor tashkil etadi, u Jamiyat nomidan barcha hujjatlarni hamda ijroiya organi majlisi bayonnomalarini imzolaydi, ijroiya organi o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlarga muvofiq ishonchnomasiz Jamiyat nomidan ish yuritadi.

Bosh direktor va Bosh direktor o'rinbosari Jamiyat faoliyatiga taaluqli masalada qarorlar qabul qilishlarida o'zaro kelishmovchilik holatlari yuzaga kelsa, ular ushbu masalani yakuniy qaror qabul qilinishi uchun Kuzatuv kengashiga topshiradilar.

Bosh direktor va Bosh direktor o'rinbosari quyidagi vakaolat va majburiyatlarga ega:

a) qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi buyicha 1 (bir) million AQSH dollarigacha bulgan summani tashkil etuvchi mol-mulk xususida bo'lgan yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish;

b) Jamiyatning tashkiliy tuzilmasi va shtatlar jadvaliga muvofiq Jamiyatga xodimlarni ishga qabul qilish, ular bilan mehnat

shartnomalari tuzish va bekor qilish, xodimlarga nisbatan rag'batlantirish choralarini va intizomiy jazolarni qo'llash;

c) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlari ijrosini tashkillashtirish;

d) Jamiyatning faoliyati va har kungi operatsiyalari bo'yicha umumiy nazorat yuritish;

e) Jamiyat xarajatlarini yillik biznes-reja va byudjetga asoslangan holda amalaga oshirish;

f) Jamiyatning faoliyatiga taalluqli lokal hujjatlarni, shu jumladan Jamiyat ish tartibini, ishchilarning ish xaqi miqdorini, ularga ish xaqi va boshqa to'lovlar to'lash tartibini belgilovchi hujjatlarni tasdiqlash;

g) Jamiyatning yillik biznes-rejasi va byudjeti hamda boshqa xarajatlari rejasini tayyorlash va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashiga taqdim etish;

h) To'rt (4) oydan kam bo'lmagan muddatga, yoki Kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan boshqa muddatga Jamiyat faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday zararlar ehtimollari haqida puxta prognozlar tayyorlash va Kuzatuv kengashiga taqdim etish;

i) Quyidagi hujjatlarni tayyorlash va Kuzatuv kengashiga taqdim etish:

Jamiyat faoliyati va operatsiyalari bo'yicha har oygi hisobotlarni;

Jamiyat daromadi, zararlari va xarajatlari bo'yicha xar oygi hisobotlarni;

Kengash ba'zida talab qilishi mumkin boshqa hisobotlarni.

j) Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga yoki Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

Jamiyat mahsul shaxslarining va boshqa personalning vakolatlari doimo Kuzatuv kengashining nazoratida bo'ladi. Bosh direktor va Bosh direktor o'rinbosari o'zaro kelishgan holda qabul qilgan qaror asosida Bosh direktor Jamiyat nomidan shartnomalar tuzadi. Undan boshqa hech kim Jamiyat nomidan shartnomalar tuzish va ish olib borish xuquqiga ega emas.

Jamiyat mahmuriyati buxgalterlar bilan va Auditorlar o'tkazayotgan taftishlarni yengillashtirish uchun va kompaniya biznes faolligini hujjatlashtirish uchun barcha moliyaviy buxgalteriya ishlari bo'yicha zararlar va daromadlar, akktiv va passivlar, aksiyadorlar o'rtasida taqsimlangan mablag'lar, valyuta operatsiyalar, tovar va moddiy boyliklar xamda boshqa hisobotlar bo'yicha to'la va aniq hisob-kitob.

a) Kitob va hisobot buxgalteriya hisobotlari xalqaro printsiplari standartlari bo'yicha olib boriladi va Jamiyat asl moliyaviy xolatini ko'rsatadi. Hisobotlar va qo'shimcha kerak bo'lgan hujjatlar xar qanaqa aksiyadorga yoki uning vakiliga oqilona xoxlagan vaqtida ko'rsatiladi va Jamiyat faoliyatida katta xatolar va nuxsonlar ko'rinsa, qilingan reviziya Jamiyat hisobidan to'lanadi.

b) Jamiyatni xamma hisob raqamlarini AQSH dollari va maxalliy valyuta orqali ishlatiladi. Xar qanday valyutadagi pul almashtirishlar va pul o'tkazishlar O'zbekiston Markaziy banki belgilagan va mazkur kuni aniqlangan rasmiy ayribosh kursi bilan o'tkaziladi.

c) Jamiyat birinchi moliyaviy yili Jamiyatni ro'yxatga olingan kundan boshlangan va ushbu yili dekabrning oxirgi kunida tugagan deb hisoblanadi. Jamiyatning keyingi moliyaviy yili yangi yil yanvarg' oyining birinchi kunidan boshlab dekabr oyining dekabr oyining oxirgi kunida tugaydi deb hisoblanadi.

d) Qo'shma Korxonaning Bitimi asosida Jamiyat xar yili O'zbekiston xukumatiga moliyaviy hisobot, jamlovchi balans, xamda davlat manbaalaridan ishlatilgan mablag'lar bo'yicha hisobotni taqdim qiladilar.

Aksiyadorlik Jamiyatining moliyaviy-xo'jalik faoliyati nazorati, buxgalteriya hisobotlarining rasmiy taftishlari, Jamiyat hisobotlari Qo'shma Korxonaga Bitimi bo'yicha asoslangan holda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida saylangan ikki (2) kishidan iborat taftish komissiyasi orqali ko'riladi va nazorat qilinadi.

Jamiyat Kengashiga izohlangan, zararlar va daromadlar to'g'risida balans va hisobot kiritilgan kvartal moliyaviy hisobot taqdim etadi.

Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlari va ushbu Ustavda belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

Jamiyat ixtiyoriy ravishda tugatilgan taqdirda, tugatilayotgan Jamiyatning kuzatuv kengashi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining hukmiga Jamiyatni tugatish va tugatuvchini tayinlash to'g'risidagi masalani havola etadi. Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tugatish to'g'risida va tugatuvchini tayinlash haqida qaror qabul qiladi.

Aksiyadorlik Jamiyati sudning qarori bilan tugatilganda tugatuvchini tayinlash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Tugatuvchi tayinlangan paytdan ehtiboran Jamiyat ishlarini boshqarish bo'yicha barcha vakolatlarni tugatuvchiga o'tadi. Tugatuvchi tugatilayotgan Jamiyat nomidan sudga ishtirok etadi.

Ustavga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin uchinchi shaxslarga nisbatan kuchga ega bo'ladi.

Jamiyat ichidagi, Jamiyat va taraflar o'rtasidagi, o'zaro taraflar o'rtasidagi Ustav bo'yicha kelib chiqqan tushunmovchilik va ziddiyatlar hamda Ustav bilan tartibga solinmagan masalalar

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Har qanday valyuta almashtirish aksiyadorlar o'rtasida yoki Qo'shma korxonada to'g'risidagi Bitimda yoki amaldagi qonunchilikda boshqa ko'rsatmalar bo'lmasa O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining to'lov amalga oshirish kuniga amalda bo'lgan almashtirish kursi asosida o'tkaziladi.

Ushbu xabarnomalar Qo'shma korxonada haqidagi Bitimga asoslangan holda xamma aksiyadorlarning qayd qilingan manzillariga shaxsiy yoki buyurtma pochta, telefaks, teleks orqali jo'natiladi. Xabarnoma telefaks, teleks yuborilgandan so'ng, yoki shaxsga berilgandan so'ng, yoki pochta orqali jo'natib 10 ish kuni o'tgandan so'ng rasmiy jo'natildi deb hisoblanadi.

Aksiyadorlar, Qo'shma korxonada haqidagi Bitimning 9-moddasiga asoslanib mazkur Ustav, bir-biridan olgan texnik, moliyaviy va tijorat ma'lumotlar to'g'risidagi mutloq maxfiy saqlaydilar hamda ushbu ma'lumotlar boshqa shaxslarga tarqatib ketishiga yo'l qo'ymaydilar (aksiyadorlarning alohida bo'yicha o'zaro kelishuv bo'lmasa).

Mazkur Ustav va Qo'shma korxonada haqidagi Bitim matnlari o'rtasidagi ziddiyat tug'ilsa, aniqlik keltiruvchi va asosga olinadigan deb ushbu Ustav tan olinadi.

Mazkur Ustav moddalarning sarlavhalari faqat matnni yengillashtirishi uchun ishlatiladi va Ustavni qismi deb hisoblanmasdan Ustavni tushunishda (talqin qilishda) hech qanday rolg' o'ynamaydi.

Kompaniyaning Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 30-uyda joylashgan vakolatxonasi mavjud.

Ushbu Bitiruv malakaviy ishini tasdiqlash paytida Kompaniya filiallarga ega emas.

Vakolatxonalarining tashkil etish, tugatish va faoliyat ko'rsatish tartibi Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi va tasdiqlanadi.

Korxonaning Bosh Direktori O'zbekiston vakili, uning o'rinbosari Janubiy-Koreya Respublikasi vakili bo'lishi lozim. Ulardan so'ng ishlab chiqarish direktori hamda uning o'rinbosari turadi. Hozirda korxonada bosh direktori Komilov N.A., uning o'rinbosari Mr. Lee V.J., ishlab chiqarish direktori Turdiyev R, uning o'rinbosari esa Parpiyev A.

Korxonada 18 bo'limdan iborat bo'lib, ular: Moddiy texnika ta'minoti xizmati, Moliyaviy iqtisodiy bo'lim, Savdo-sotuv bo'limi, Administratsiya, Yurist, Texnik nazorat, Sifat bo'limlari hamda bir necha sexlardan iborat.

MTTX bo'limida 37 nafar hodim faoliyat ko'rsatadi. Moliya-iqtisodiyot bo'limida esa 10, Administratsiya bo'limida 43 nafar, Savdo-sotuv bo'limida 70 nafar, Texnik nazorat bo'limida esa 32 nafar, sifat bo'limida 19 nafar ishchi hodimlar faoliyat ko'rsatadi.

Sexlar 6ta: Svarka, Payvandlash hamda yoqilg'i boki sexlari 2tadan. Har birida 50-70tadan ishchi hodim faoliyat ko'rsatadi.

Har bir sexda 2tadan smena boshlig'I bo'lib, ular almashgan holda ishlaydilar. Ular ishchi hodimlar mehnatini nazorat qilib, kunlik berilgan topshiriqlarni bajarishga javobgardirlar.

Shuningdek korxonaning Toshkentdagi vakolatxonasida 6 nafar hodim bo'lib, ular korxonaga kelayotgan konteynerlarni Angren tumanida ro'yxatdan o'tkizib, qabul qilib oladi.

2.3 Qo'shma korxonaning iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy faoliyatiga umumiy baho berish

Korxonaning 2010-2012 yilgi iqtisodiy faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, korxonaning loyiha quvvati 250 000 dona yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarish ekanini guvohi bo'lishimiz mumkin. Eng muhimi esa, korxonada 3 yil faoliyat davomida bu ko'rsatkich o'zgarmagan, ya'ni, o'z oldiga aniq maqsad qo'yganligi va bu maqsad sari intilmoqda ekanini guvohi bo'lishimiz mumkin. Korxonada asosan Damas, Nexia, Matiz, Cobalt avtomashinalariga benzobak ishlab chiqaradi. Bu ko'rsatkich 2010 yilda umumiy ko'rinishda 182,5 ming dona benzobakni tashkil qildi, bundan 20,9 ming donasi Damas uchun, 88 ming donasi Nexia uchun, 74 ming donasi esa Matiz uchun ishlab chiqarildi. 2011 yilga kelib korxonada 174 ming dona, xususan Damas uchun 21,7 ming dona, Nexia uchun 92,6 ming dona, Matiz uchun esa 60,4 ming dona benzobak ishlab chiqarildi. 2012 yilda bu ko'rsatkich 157,4 ming donani tashkil etdi.

Amaldagi narxlar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish 2012 yilda 2010 yildan 46 555 mln so'm ko'p bo'lgan bo'lsa, 2011 yildan 18 284 mln so'm ortiq bo'ldi. Ya'ni 2010 yilda bu ko'rsatkich 65 789 mln so'm, 2011 yilda 94 059 mln so'm, 2012 yilda esa 112 344 mln so'mni tashkil etdi. 2012 yilda bu ko'rsatkich 2010 yilga nisbatan 171,0%, 2011 yilga nisbatan esa 119,0%ga ortganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Korxonaning 3 yillik faoliyati davomida ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti 2010 yilda 73,0 %, 2011 yilda 69,9%, 2012 yilda esa 63,0%ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichning tushib borayotganining sababi dam olish kunlari, ishlab chiqarish vositalarining ishdan chiqayotgani bo'lmoqda.

Korxonaning mehnat ko'rsatkichlarini ko'rib chiqar ekanmiz, birinchi navbatda ish haqi fondi ko'z oldimizga keladi. 2010 yilda bu ko'rsatkich 1 929 mln so'mni, 2011 yilda 3 115 mln so'mni, 2012 yilda esa 4 701 mln so'mni tashkil etgani, yildan yilga bu ko'rsatkich oshganini guvohi bo'lamiz.

O'rtacha oylik ish haqi 2010 yilda 343 520 so'mni tashkil etdi. Buni hisoblashda 468 nafar ishchi hodim ish haqidan foydalanildi. 2011 yilda 462 785 so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu yili 561 nafar ishchi hodim ish haqidan hisoblab chiqildi. 2012 yilda o'rtacha oylik ish haqi 166 437 so'mni tashkil etdi. Bunda 739 nafar ishchi hodimdan foydalanib hisoblab chiqildi.

Xususan mehnat unumdorligi 2010 yilda 160 mln so'mni tashkil etdi. 2011 yilga kelib bu ko'rsatkich 187 mln so'mga oshgan bo'lsa, 2012 yilda 166 mln so'm bo'ldi. Boshqa ko'rsatkichlarni ko'rib chiqar ekanmiz, fond qaytimi 2010-2012 yillar uchun 5,2 ming so'm, 2,9 ming so'm va 2,6 ming so'mlarni tashkil etdi. Fond sig'imi esa 0,2 ming so'm, 0,3 ming so'm va 0,4 ming so'mlarni tashkil etdi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati 2010 yilda 12678 mln so'm, 2011 yilda 32830 mln so'm va 2012 yilda 43 893 mln so'mni tashkil etdi.

Korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlariga nazar tashlar ekanmiz, sotuvdan tushgan tushum 2010 yilda 66104 mln so'mni, 2011 yilda 91036 mln so'mni, 2012 yilda esa 1 18326 mln so'mni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Sotilgan Tovar tannarxi 2010 yilda 53391 mln so'm, 2011 yilda 70324 mln so'm, 2012 yilda 95674 mln so'mni tashkil etdi. Sotuvdan tushgan yalpi foyda 2010 yilda 12371 mln so'mni, 2011 yilda 20711 mln so'mni, 2012 yilda esa 22652 mln so'mni tashkil etdi. Xususan davr harajatlari 2010 yilda 6 mlrd so'mni, 2011 yilda 9 mlrd so'mni, 2012 yilda esa 12mlrd so'mni tashkil etdi. Asosiy faoliyatdan olingan bishqa daromadlar 140 mln

so'm 2010 yilda, 2011 yilda esa 446 mln so'm, 2012 yilda esa 163 mln so'm bo'ldi. Asosiy faoliyatdan olingan foyda 2010 yilda 6,807 mlrd so'm, 2011 yilda 127 mlrd so'm, 2012 yilda esa 102 mlrd so'mni tashkil etdi.

Soliqlar 2010 yilda 432 mln so'mni, 2011 yilda 811 mln so'mni, 2012 yilda esa 555 mln so'mni tashkil etdi. Sof foyda esa 2010 yilda 4,8 mlrd so'm, 2011 yilda 9,1 mlrd so'm, 2012 yilda 6,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

Korxonada tushumga nisbatan rentabellik 2010 yilda 7,3% tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda bu ko'rsatkich 10,0%ga ko'tarildi. 2012 yilda lekin 5,4%ni tashkil etdi. Tannarxga nisbatan rentabellik esa 2010 yil 9,0%, 2011 yilda 13,0%, 2012 yilda esa 6,7%ni tashkil etdi.

Qisqacha ko'rsatkichlardan xulosa chiqarar ekanmiz, bugungi kunda iqtisodiyotning real sektorida "Uz SaemYung Co" O'zbekiston – Janubiy Koreya qo'shma korxonasi yopiq aksiyadorlik jamiyatining tutgan o'rni beqiyos ekanligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Chunki bugungi kunda mashinasozlik sanoati kun sayin taraqqiy etib bormoqda.

III-BOB. ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIGA INVESTITSIYA KIRITISH IMKONIYATLARINI OSHIRISH YO'LLARI.

3.1. Investitsiya kiritish imkoniyatlarini oshirishning xorij tajribasi

Iqtisodiy adabiyotlarda va jahon tajribasida xorijiy investitsiyalarni muvofiqlashtirishda turlicha tartib va usullarning bo'lishi qayd etilgan. Masalan, milliy tartib, adolatli va teng huquqlilik tartibi, qulay muhit barpo etish tartibi, transparent (shaffoflik) tartibi. Jahon amaliyotida qo'llanilayotgan bu kabi tartib va usullarni qiyosiy tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiyotni rivojlantirish tajribasi dunyoning ko'pgin amamlakatlari amaliyotida sinalgan investitsiya siyosati va uning samaradorligini baholashning umumlashtiruvchi mezonlari bilan birga, huquqiy tartiblarining turli variantlaridan shakllangan obyektiv qonunlar asosida to'plangan.

Sanoati rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik xorij kapitali va investitsiyani maxsus qonunlarsiz ham yetarlicha himoyalash imkoniyatini beradi. Bu yerda xorijiy investitsiyalar ham milliy ichki investitsiyalar kabi umumiy qonunlar asosida muvofiqlashtiriladi. Bu mamlakatlardagi aniq ishlab chiqilgan qonuniy baza chet el investorlarining to'laqonli faoliyatini, ya'ni yangi kompaniyalarni tashkil etishda erkin faoliyatni (ro'yxatdan o'tkazish jarayoni, mulk huquqi kafolati), foyda olish (soliq siyosatidagi yangillik va imtiyozlar), nizolarni tartibga solish (mehnat qonunlaridagi shaffoflik, monopoliyaga qarshi aniq tadbirlar) kabilarni kafolatlaydi.

G'arb mamlakatlarida hukumat kapital qo'yilmalarni faollashtirish strategiyasida ko'proq xorijiy investitsiyalarni muvofiqlashtirishning egri usulidan (soliq, amortizatsiya, moliya-kredit siyosati) foydalanishni afzal ko'rishadi. G'arbda so'nggi ikki o'n yillikda investitsiya qarorlarini qabul qilish va amalga oshirishda

mahalliy hududlar mas'uliyati va roli oshib bormoqda. Qator davlatlarda (AQSH, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya) mahalliy organlar xorijiy investitsiyalarni va investorlar faoliyatini muvofiqlashtirishda yetarlicha mustaqillikka egadir. Bu yerda investitsiya bozorini muvofiqlashtirishning asosiy vositasi sifatida daromad solig'i (foyda solig'i) qo'llaniladi. Bu soliq stavkasining o'zgarishi firma va kompaniyalarning investitsiya faoliyatiga bevosita ta'sir etadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida investitsiya faoliyati investitsiya krediti orqali ham muvofiqlashtiriladi, ya'ni kapital qo'yilmalarga yo'naltirilgan foyda soliqqa tortilmaydi.

Umuman, so'nggi 20 yil mobaynida rivojlangan mamlakatlarda investitsiya faoliyati keng kompyuterlashtirish, resurslarni tejash, yangi zamonaviy texnologiya, shuningdek, mahalliy hokimiyatning roli va javobgarligini oshirish hamda yangi boshqaruv tizimi asosidagi iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishga yo'naltirilgan. Mahalliy hokimiyatlarga investitsiya dasturlarini boshqarishda, ekologik siyosatni yurgizishda va hududiy rejalashtirishda asosiy rol belgilangan. Jahontajribasi shundan guvoh beradiki, investitsiya dasturi va loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshishi uning ishtirokchilari o'rtasida optimal proporsiyani ta'minlashga bog'liqdir.

Davlat ham bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Uning asosan quyidagilarni, ya'ni:

- huquqiy muvofiqlashtirishni ta'minlash, munitsipial tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlarni rasmiylashtirish;

- moddiy va moliyaviy resurslarni birlashtirish uchun sharoit yaratish, soliq yangilliklarini va boshqa moliyaviy imtiyozlarni belgilash;

- loyihani hayotga tatbiq etishda va uning noxush oqibatlari (ekologiya buzilishi, hududiy yer uchastkasining buzilishi va

boshqalar) uchun mahalliy organlarning javobgarligini aniqlash;

- loyihani amalga oshirish uchun aholini, ijtimoiy tashkilotlarni jalb etish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali loyihani hayotga tatbiq etishning maqsadga muvofiq ishni keng targ'ibetishni uning funksiyasiga kiritish mumkin.

AQSH, Braziliya, Xitoy, Meksika, Hindiston kabi yirik davlatlarda mahalliy organlarning zimmasiga juda mas'uliyatli vazifalar yuklatilgan, Ayniqsa, AQSH va Germaniyada alohida hudud va shtatlar yuqori darajadagi mustaqillikka va yirik miqdordagi moliyaviy resurslarga ega.

Rivojlangan davlatlarda hududiy investitsiya siyosatini olib borish o'ta muhim masalalardan sanaladi. Davlat doimiy ravishda har bir hududning iqtisodiy imkoniyati, rivojlanish darajasini e'tiborga olgan holda, investitsiya siyosatini olib boradi. Amerika Qo'shma Shtatlarida federal darajada maxsus xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirishda dasturlari ishlab chiqilmagan. Xorijiy investitsiyalar uchun tavsiya etiladigan barcha imtiyoz va yangiliklar shtatlar darajasida ishlab chiqilgan. Bu esa, o'z navbatida, xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha shtatlar o'rtasida erkin raqobatni vujudga keltiradi. 50 ta shtat har bir milliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha o'zining maxsus ishlab chiqilgan dasturiga ega.

Har bir shtat aniq, maqsadga qaratilgan xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha bir necha xil dasturlarni ishlab chiqadi.

Ular quyidagi maqsadlarda bo'lishi mumkin:

- ish joylarini tashkil etish;
- shtatni va alohida shtat hududlarining iqtisodiyotini rivojlantirishni rag'batlantirish;
- zamonaviy ilg'or texnologiyani joriy etish va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga erishish va h.k.

AQSHda shtatlar miqyosida xorijiy investorlar uchun beriladigan imtiyozlar - bu soliq imtiyozlari, moliyaviy yordam, ifratuzilmani rivojlantirishda hamkorlik, kadrlar tayyorlash, ijara haqi va elektr to'lovlarini kamaytirish, past foizlarda kredit shaklida bevosita moliyaviy resurslar ajratish kabilardan iborat.

Harbir shtatning mustaqil investitsiya siyosatini olib borishi, erkin raqobatning vujudga kelishiga, shu hududda ishlab chiqarishning, tadbirkorlikning rivojlanishiga zamin yaratadi.

So'nggi yillarda qator davlatlarda hududni iqtisodiy rivojlantirish korporatsiyalarini tashkil etish tajribasi keng qo'llanilmoqda. Bu korporatsiyalar mazkur hududda joylashgan firmalar ishtirokida maxsus fondlarni shakllantiradi. Bu fond mablag'lari hududda infratuzilmani rivojlantirishga, yangi qurilishlarga yo'naltiriladi.

1980 yillarda Buyuk Britaniyada uchta davlat korporatsiyalari tashkiletilib, savdo-sanoat vazirligiga bo'ysundirildi. Ular hududlarda o'z bo'limlariga ega bo'lib, bu bo'limlar hududlarda loyihalash, yer uchastkalarini qurilish firmalariga taqsimlab berish, qurilish uchun hududlarni tayyorlash va muhandislik kommunal xo'jaliklarini barpo etish bilan shug'ullanib kelmoqda.

Mahalliy organlar munitsipial obligatsiyalar darajasida qurilishni moliyalashtirishning asosiy manbasi bo'lib, hisoblanadi. AQSHda bunday obligatsiyalarni shtat hukumati, mahalliy hokimiyat va uning agentlik hamda departamentlari muomalaga chiqaradi.

Munitsipial obligatsiyalarning investorlar uchun jozibadorligi shundaki, bu obligatsiyalardan olingan daromad federal soliqdan ozod etiladi. Bundan tashqari, rezidentlar uchun bu obligatsiyadan olingan daromad mahalliy soliqlardan ham ozod etiladi.

Chet el investorlariga turli xil yangillik va imtiyozlar joriy etish bo'yicha Xitoy davlati tajribasi ham ahamiyatlidir. Xitoy hukumati

investitsiyalar oqimini hududlar darajasida, mahalliy hokimiyatg akatta vakolat bergan holda muvaffaqiyatli ravishda muvofiqlashtirib kelmoqda.

Markaziy organlar umumiy investitsiya siyosati doirasida qaysi sohaga investitsiyalar yo'naltirish zarurligini aniqlab beradi. Mahalliy organlar esa, investitsiyalarni rag'batlantirish dasturlarini bir vaqtda ishlab chiqadi. Chet el investitsiyalarini jalb etish uchun «soliq kanikuli» va yangilliklari, import tariflari bo'yicha yangilliklar kabi turlicha rag'batlantirish usullari ishlab chiqilgan. Ayniqsa, bir qator erkin iqtisodiy zonalarda tashkil etilgan korxonalariga nisbatan bunday yangillik va imtiyozlar ko'proq ishlatiladi.

Hozirda Xitoy hukumati mamlakatning ichki tumanlariga ko'plab xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun, ularga uzoqmuddatga soliq to'lashdan ozod etish, foydasini har qanday to'siqlarsiz olib chiqib ketish kabi shart-sharoitlarni yaratmoqdalar. Mahalliy hokimiyatlar mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun chet el kapitalini jalb qilishni rag'batlantirish dasturlarini markaziy organlarning ruxsatisiz hayotga tatbiq etishlari mumkin.

Xitoy davlatining investitsiyalar bo'yicha qonunlari Yaponiya, Janubiy Koreya, Taybey, Singapur kabi davlatlarning qonunlariga ko'p jihatdan o'xshash holda ishlab chiqilgan. Shu bilan birgalikda, ta'kidlash lozimki, turli davlatlarning qonunlarida chet el investorlari faoliyatiga cheklanmalar ham belgilangan. Deyarli barcha davlatlarda chet el kapitali kiritilishi mumkin bo'lmagan tarmoqlar mavjuddir. Qator davlatlarda chet el investitsiyalari uchun ayrim tarmoqlar to'liq yopiqdir.

Xorijiy investorlarning faoliyati bo'yicha cheklovlarni muvofiqlashtirishda mahalliy organlarning ishtiroki ham salmoqlidir. Qator davlatlarda mahalliy hududdagi iqtisodiy vaziyatdan kelibchiqib, xorijiy investorlar faoliyatida turli cheklovlarni

belgilanadi. Masalan, AQSHda ayrim shtatlarda foydali qazilmalarga chet el kapitalini jalb etish man etilgan bo'lsa, ayrim shtatlarda yer uchastkasini sotib olishda cheklovlar belgilangan.

Biroq, jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, ko'pgina davlatlarda hududiy investitsiya siyosatida moliyaviy-iqtisodiy imtiyozlar va yangiliklarning berilishi hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Respublikamizda ham viloyatlarning, tumanlarning investitsiya faoliyatidagi faolligini va mustaqilligini oshirish hududlarga chet el investitsiyalarini jalb etishda muhim bir mezon bo'lishi mumkin.

3.2 “UZ SAEMYUNG CO” qo’shma korxonasi investitsiya imkoniyatlari

“Uz Saemyung Co” qo’shma korxonasi 1996 yil tashkil etilgan bo’lsada, bugungi kunga qadar ko’pgina investitsiyalar jalb qilishga ulgurgan. Xususan 2010 yil korxonada o’z maydonini kengaytirishi natijasida yangi 2ta: payvandlash hamda svarka sexlari qurildi. Ular kerakli asbob uskunalar bilan ta’minlandi. Bunga 1 000 000 000 AQSh dollariga yaqin mablag’ sarflandi. Hozirgi kunga qadar sexlar rejadagidek faoliyat ko’rsatmoqda.

2011 yil korxonada J200 Lacetti proyeksi uchun investitsiyalar olib kirdi. Xususan payvandlash uskunasi MC 800 ton modeli 1 100 000 AQSH dollariga olib kirilgan bo’lsa, shu yilgi barcha investitsiyalar 5 745 000 AQSh dollarini tashkil etdi.

Lekin korxonada bu bilan to’xtab qolmadi. Lacetti avtomobilining benzin boki ishlab chiqarishdagi barcha detallarni mahalliy lashtirish maqsadida 2012 yili 52ta transformator, 52ta taymer, shuningdek 13 aniq svarka qiluvchi uskuna, 100dan ortiq svarka pistoletlari, germetika qiluvchi asboblari kiritildi. Ularning umumiy summasi 9 791 900 AQSh dollarini tashkil etdi.

Korxonada 2014 yili EPICA, CAPTIVA, MALIBU avtomashinalari benzin boki ishlab chiqarishni yo’lga qo’yishni rejalashtirmoqda. Bunga 30 000 000 AQSh dollariga yaqin summadagi investitsiyalar olib kirish ko’zda tutilmoqda. Shuningdek o’z ishchi hodimlarini malaka oshirish o’quv yurtlariga, xususan Janubiy-Koreya Respublikasi, Germaniya Federatsiyasi, AQSh, Rossiya Federatsiyalariga jo’natish maqsad qilib qo’yilmoqda. Sababi korxonada inson kapitaliga qilinadigon investitsiyalarga ham katta e’tibor qaratiladi.

Amaliyot chog'ida korxonaga Germaniya Federatsiyasining "Wolkswagen" korxonasi vakillari tashrif buyurdilar. Ular o'zlarining investitsiyalari olib kirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishgan ekan. Buning asosiy sababi O'zbekistonda bugungi kunda investorlar uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlar, qulay muhit, mashinasozlik sanoatiga kata e'tibor qaratilayotganidir.

"Uz Semyung Co" korxonasi keying yillarda nafaqat Germaniya, balki boshqa jahon bozorida o'z obro'siga ega mashinasozlik korxonalari joylashgan mamlakatlar, xususan AQSh, Italiya, Rossiya mamlakatlari bilan hamkorlik o'rnatishni istiqboldagi maqsadlar qatoriga qo'yib qo'ygan.

XULOSA

Amaliyot chog'ida korxonaning faoliyati shunchalik yaxshi taassurotlar qoldirdiki, uning faoliyatidagi kamchiliklarni toppish oson bo'lmadi. Shunday bo'lsada, quyida ayrim takliflarni berib o'tishni lozim topdim.

Korxonada ish vaqti 8:00da boshlanar ekan, ko'pgina ishchi hodimlar ishga kech qolishlarini kuzatish mumkin bo'ladi. Garchi bu insonlar uchun odatiy hol, har xil sabablar bo'lishi mumkinligini hisobga olsakda, buni bartaraf etish lozim. Bunda rahbar hodimlarning bevosita qatnashuvi darkor. Chunki ish vaqti yo'qotishlari mehnat unumdorligini tushurib yuboruvchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Svarka sexi ishchilari ish davomida maxsus ko'zoynaklarini yechib olishi, ishchi hodimlarning maxsus qalqoplardan har doim foydalanmasligi ham achinarli hol. Zero turli xil jaroxatlar olinishi ham shu kichik qoidabuzarliklardan boshlanadi. Bu bilan bir qatorda maxsus ko'zoynaklarni yechib olish chog'ida ishlayotgan ishchi hodim bevosita svarka qilayotgan uskunalarga qaramasligi natijasida brak mahsulot ishlab chiqarish kuzatilmoqda. Shuning oldini olish maqsadida qat'iy ravishda qoidabuzarliklarni jazolash tizimini yaratish zarur.

Maxsus yuk tashuvchi karalar eskirgan. Ularni yangi, zamonaviyroqlariga almashtirish lozim. Shu bilan birgalikda ishchi hodimlarga haydovchilik guvohnomasiga o'qitish kurslarini tashkil qilish lozim. Bu oddiy ishchi hodimlarning ham ta'lib olish natijasida kara haydovchisi lavozimiga o'tishi imkonini beradi. Chunki birgina kara haydovchisi ayrim sabablarga ko'rsa ishga kela olmasa, uning o'rnini egallovchi haydovchilar juda ham kam miqdorda.

Korxonada Janubiy-Koreya Respublikasidan KD detallarini juda baland narxlarda sotib oladi. Aynan shu detallarni Rossiya

Federatsiyasi korxonalarini internet sahifalarida arzonroq narxlarda ko'rish mumkin. Yetkazib berish ham tezroq muddatlarda bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining muhim subyekti korxonalar - iqtisodiyotning birlamchi bo'g'ini bo'lib, inson hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklarni ishlab chiqarishda bevosita qatnashadi.

Har bir korxonalar ishlab chiqarish omillaridan foydalanish, ularni iste'mol uchun tayyor mahsulot (ish, xizmat) holiga keltirish yo'li bilan mamlakat iqtisodiyotiga o'z hissasini qo'shadi. Shu o'rinda "Uz SaemYung Co" O'zbekiston – Janubiy Koreya qo'shma korxonasi yopiq aksiyadorlik jamiyati ham o'zining faoliyati orqali O'zbekiston Respublikasida mashinasozlik sanoatining rivojiga hissa qo'shmoqda. Chunki GM Uzbekistan korxonasining asosiy ta'minotchi "Uz SaemYung Co" hisoblanadi. Ayrim yarim tayyor mahsulotlar tayyorlanishi qiyin bo'lganligi sababli Janubiy Koreya, Rossiya Federatsiyasi korxonalaridan sotib olinadi. Bularni mahalliyashtirish maqsadida bugungi kunda ishlab chiqilmoqda. "Uz SaemYung Co" Andijon viloyatining boshqa tumanlariga ham o'z filiallarini ochib olishni maqsad qilib qo'ygan.

Bitiruv oldi amaliyotidan xulosa qilib aytar ekanman, korxonaning nafaqat ish faoliyati, balki personal o'rtasidagi muomala madaniyati, do'stona kayfiyat yaxshi taassurotlar qoldirdi. Ayniqsa ishchi hodimlarning korxonalar mulki hisoblanmish turli xil kompyuter, dastgohlardan oqilona foydalanib, o'z mulkidek asrashlari quvontirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: «Adolat», 2012.
2. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni //Xalq so'zi. 2010 yil 24 dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonuni //Xalq so'zi. 2008 yil 20 may.
4. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investorlari huquqlarini himoya qilish kafolatlari va chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qonuni // Xalq so'zi. 2008 yil 21 may.
5. O'zbekiston Respublikasi «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuni, 2009 yil 21 dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 9 fevraldagi «Chet el investitsiyalari bilan loyihalarni amalga oshirish mexanizmini takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 19 yanvardagi «Investitsiya loyihalarini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 5 iyundagi «Eksport mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 17 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Nazorat bo'yicha muvofiqlashtiruvchi Kengash tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 sentyabrdagi 420-son qarori “O'zbekiston Respublikasi investitsiya Dasturini shakllantirish”
11. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.: — O'zbekiston, 1999. 7-tom.
10. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish — eng muhim vazifamiz. «Xalq so'zi», 2010 yil 12 fevral.
11. Prezident I. Karimovning 2012 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga bagishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi mahruzasi // Xalq so'zi. 2013 yil 18 fevral.
12. Prezident I. Karimovning 2012 yilining birinchi yarim yilligida O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish yuzasidan ustuvor vazifalar va topshiriqlarning bajarilishi hamda dolzarb muammolarning hal etilishi to'g'risidagi mahruzasi. //O'zbekiston ovozi. 2012 yil 20 iyul.
13. Prezident I. Karimov 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan

iqtisodiy dastur. Ma'rifat, 2013 yil 19 yanvar.

14. Abdullaeva SH.Z. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2005-585b.

15. Ангелиди М. С. Организация кредитного процесса в коммерческих банках, Т.: 2008. — 22 стр.

16. Банковское дело и финансирования инвестиций. / Под редакции Н.Брука. Институт экономического развития Всемирного банка, 1-том 1,2-часть, 2-том 1,2-часть, 2005.

17. Бочаров В.В. Методы финансирования инвестиционной деятельности предприятий. Учебное пособие. –М.: Финансы и статистика, 2008.-160 стр.

18. Бромвич М. Анализ экономической эффективности капитальных вложений, М.: — Приор, 1995.

19. Ваҳобов А., Жумаев Н., Бурханов У. Халқаро молия муносабатлари. Дарслик. –Т.: Шарқ, 2003-400б.

20. Ваҳобов А. В., Иброҳимов А.Т. Молиявий таҳлил. Дарслик, Т.: - «Шарқ», 2002. - 224 б.

21. Гулямов С.С. Проектный анализ инвестиций. Т.: — ГФНТИ, 1995.

22. Газибеков Д.Г., Сабиров О. Ш., Мо'минов А.Г., Қулжонов О.М. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти. О'қув қо'лланма. –Т: 2004.308б.

23. Газибеков Д.Г., Ангелиди М.С. Инвестиционная деятельность перед входением в рыночную экономику. Т.: 1991.

24. Гитмаи А.Дж., Джонк М.Д. Основы инвестирования. М.: — Дело, 1997.

25. Глазунов В.П. Финансовый анализ и оценка рисков реальных инвестиций. М.: — Финстатинформ. 2000.

26. Ковалев В.В. Методы оценки инвестиционных проектов, М.:—Финансы и статистика. 2001.

27. Клини М.И., Перекатов Б.А., Тютиков Ю.Т. Стратегическое планирование инвестиционной деятельности. Санкт-Петербург, 2001.

28. Жо'раев А. С., Хо'жамкулов Д. Ю., Маматов Б. С. Инвестиция лойилари тахлили «Шарқ» Тошкент-2003.-255 б.

29. Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирование инвестиций. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2001.-257.

30. Internet sahifalar:

www.gov.uz/

www.ziyonet.uz/

www.xs.uz/

www.referatlar.uz/

www.mfer.uz/